



SALOHIYAT - MEZON

2

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOY-IQTISODIY FAKULTETI

**MILLIY G`OYA, MA`NAVIYAT VA HUQUQ
ASOSLARI KAFEDRASI**

ILMIY MAQOLALAR

TO`PLAMI

“SALOHIYAT – MEZON”

2-SON



NAMANGAN-2012

Mas`ul muharrir: Falsafa fanlari nomzodi O. MAMATOV.

Taqrizchilar: Falsafa fanlari doktori, professor M. NISHONOV.
Tarix fanlari nomzodi A. SARIMSOQOV.

Ilmiy to`plam Namangan davlat Universiteti ilmiy-texnikaviy kengashining 20 yanvar 2012 yilgi yig`ilishida ko`rib chiqilgan va nashrga tavsiy qilingan.

ISBN 978-9943-371-48-4

НГ — $\frac{1020 - 2350 - 1444720}{1021 - (5,5) - (02)}$ 2012



© “Namangan” nashriyoti - 2012

BUZG`UNCHI OHANGLAR

*O.V.Mamatov,
milliy g`oya, ma`naviyat
va huquq asoslari
kafedrasi mudiri, f.f.n.*

Globallashuv jarayonlari xalqlar va millatlarga bir qator ijobiy ta`sirlari bilan bir qatorda salbiy hodisalarni ham keltirib chiqaradi-ki, uni o`rganmaslik va jiddiy e`tibor qaratmaslik xalqning yoki millatning tanazzuliga olib keladi.

Globalashuvning ta`sirlarini shunchaki salbiy ta`sir sifatida emas, balki millat taqdiriga tahdid sifatida baholamoq lozim. U xalqlarning ma`naviy, ijtimoiy, madaniy saviyasiga ta`sir o`tkazadi-ki, o`z navbatida milliy xususiyatlarning yo`qolib ketishiga olib keladi. O`zining taraqqiyotning yuqori cho`qqisida deb baholayotgan g`arb mamlakatlarida millatni qutqarib qolish masalasi o`ta jiddiy masala bo`lib qolgani buning yaqqol isbotidir.

Butun dunyo mamlakatlari kabi O`zbekiston ham globalashuv jarayonlaridan chetda tura olmaydi, undan qochmoqchi bo`lganlarni esa o`z domiga yanada chuqurroq tortadi. Globalashuv tahdidlaridan qutilib qolmoqning, omon qolmoqning yagona bir yo`li uni chuqur ilmiy asosda o`rganish va faol sub`ektiga aylanish kerak. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, globalashuv jarayonlari tufayli yuzaga kelgan ma`naviy tahdid, tahdidlar ichida eng xavflisi va zararlisidir. Chunki ma`naviyatning izdan chiqishi, jamiyat hayotining tanazzulini yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda millat hayotiga jiddiy tahdidlardan biri «Ommaviy madaniyat» tahdididir.

«Ommaviy madaniyat» yoshlarda beparvolik, loqaydlik, befarklik xususiyatlarini shakllantiradiki, u oxir oqibatda shaxsda nafaqat millat xususiyatlarning, xattoki, insoniy xususiyatlarning ham yo`qolishiga olib keladi.

«Ommaviy madaniyat» atrofdagi insonlarni, jamoani, ota-onani mensimaslik, madaniy munosabatlardan yuz o`girish va xattoki, o`z taqdiriga befarq qarash ruhiyatini shakllantiradi.

Hayotdan bema`ni lazzat olish, axloqsizlikni keltirib chiqaradiki, odam sekin-asta boshi berk ko`chaga, ya`ni turli xil jinoyat ko`chalariga kirib boradi.

Prezidentimiz iboralari bilan aytganda «Keyingi paytda san`atda oshkoraliyki pesh qilib, televizor, kino ekranlarida, matbuot vositalarida bo`limg`ur lavhalarni aks ettirish, bema`nilik va hayosizlikni, ba`zan esa, xatto axloqiy buzuqlikni targ`ib qilishlar ko`payib qoldi».

Ayniqsa, axborot sohasining globallashuvi, insoniyatga juda katta qulayliklar bilan bir qatorda, axborot hurujlarini ham keltirib chiqardiki, chet el ommaviy axborot vositalari, muttasil tarzda o`z mafkuralarini aholimiz ongiga singdirish maqsadida san`atning turli sohalaridan tinimsiz foydalanmoqdalar.

Aslida mafkuraviy tahdidlarni 2 turga bo`lish kerak:

- 1)Mafkurasizlik, g`oyasizlikni targ`ib qiluvchi mafkuralar.
- 2)Muayyan buzg`unchi g`oyani targ`ib qiluvchi mafkuralar.

Birinchisi, jamiyatda insonlarni loqaydlik, beparvolik, o`z taqdiriga befarqlik, xalqni, urf-odat an`analarni mensimaslik kayfiyatini yuzaga keltirsa, ikkinchisi, o`z yo`liga og`dirish, buzg`unchi g`oya ortidan ergashtirish yo`lini tutadi. Har ikkisi ham millat va xalq taqdiri uchun o`ta xavflidir.

Globallashuv o`zining ulkan ijobiy xususiyatlari bilan bir qatorda «Ommaviy madaniyat» deb nomlanmish insoniyatda g`ayriinsoniy xususiyatlarni shakllantiradigan g`oyasizlik, e`tiqodsizlik, madaniyatda fanatizmni shakllantiradigan tahhidni ham yuzaga keltirdi.

Prezidentimiz iboralari bilan aytganda, «Ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo`ravonlik, individualizm, egotsentrizm g`oyalarini tarqatish, kerak bo`lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an`ana va qadriyatları, turmush tarzining ma`naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo`porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo`ymaydi».

«Ommaviy madaniyat» san`atning barcha turlari: kino, mul`tfil`m, musiqa, shuningdek, reklama va hokazolar orqali xuruj qilmoqda.

Oddiygina misol tariqasida musiqani olaylik, psixologik urush arboblari «Ommaviy musiqani yoshlar ongiga ta`sir o`tkazishning sezilmash vositasi» sifatida quroq qilib oldilar.

Bizda «Ommaviy musiqa» tahdidi, g`arbning aslo yaxshi bo`limgan na`munalarini ko`chirib olish bilan bog`liq. Mashhurlik to`lqinida

shubhali, yoshlarning didini buzadigan, g'oyaviy va estetik zarar keltiradigan dasturlarga ega bo'lgan musiqa ansambilari yuzaga chiqa boshladi.

Bu musiqa birinchi galda insonning estetik tuyg'ularini ishdan chiqaradi. «Demokratiya» ning buzuq shakli, aniqrog'i boshboshdoqlik, hammaga tushunarlik, zamonaviy texnikani namoyish qilish, jo'n kuylar va sakrash tarzidagi ritmlar, manzaradorlik va yorqinlik, bularning barchasi musiqa tinglovchilariga juda katta ta'sir ko'rsatishini belgilaydi.

Elektr asboblarining qulqoni kar qiladigan shovqini, ijrochilarning g'ashga tegadigan kiyimlari, chiroqni tinimsiz lippillab turishi, mana shularning hammasi, estetik jihatdan mustahkamlanmagan yoshlarga, sharob va nashadek ta'sir qiladi.

Ansambilarning chiqishi paytida, ularning tashqi qiyofasi, ko'ngil ochar, mast qiladigan, ma'naviyatga yot tomonlari ichki mazmundan ustun keladi.

Yuqoridagi holat yoshlarni didsizlik, farosatsizlik, nihoyat loqaydlik va beparvolikka olib keladi. Yoshlar o'rtasida moda tusini olgan «ko'ngil ochar» o'tirishlardagi (sinfdoshlar, kursdoshlar, kasbdoshlar va hokazolar asosidagi yig'inlar) bir to'da fanatlar sevimli qo'shiqchining ovozini eshitib mast bo'ladilar va aqldan ozadilar. Behayo lirika, o'ldim kuydim, millionlab oshig'im, sen esa sariq chaqa» qabilidagi chala shoirlarning ayanchli ijodi yoshlarning estetik va axloqiy ongiga jiddiy zarar etkazmoqda.

Bu kabi qo'shiq va musiqalar, kafelar, restoranlar, yaxna ichimliklar va muzqaymoqlar sotiladigan joylar (darvoqe bularning reklamasi ham yoshlarning behayo estetik fanatizmini ko'pikdek yuzaga chiqaradi), xattoki transport vositalarida yangrab turadi.

Bularning barchasi yoshlarda o'zbo'larchilik, atrofdagilarni mensimaslik, xushimga kelganini qilaman, lazzatli hayotga intilish qabilidagi ruhiy holatlarni yuzaga keltiradi.

Musiqadagi va qo'shiqchilik san'atidagi bunday didsizlik va "savdogarlik" milliy ma'naviy qadriyatlarni mensimaslikka olib kelmoqda.

Biz qisqacha "Ommaviy madaniyat"ning "Ommaviy musiqa", sohasiga to'xtaldik xolos. "Ommaviy musiqa", "Ommaviy madaniyat" ga nisbatan okeandan bir tomchi xolos.

Yaqin besh-o'n yil ichida mamlakat taqdirini, millat va xalq taqdirini hozirgi yoshlar hal etishini hisobga oladigan bo'lsak,

«Ommaviy madaniyat» tahdidining oldini olish chora-tadbirlarini izlash, buning ustida tinimsiz bosh qotirish, millat taqdirini hal etish darajasidagi o`ta muhim va dolzarb muammolardan biri sifatida qolaveradi.

Shu o`rinda prezidentimiz Islom Abdug`anievich Karimovning quyidagi fikrlarini eslash kifoya: “Biz uchun axloqiy jihatdan noma`qul, milliy qadriyat va qarashlarimizga yot bo`lgan, lekin hozirgi vaqtda hayotimizga kirib borayotgan mana shunday ko`rinishlarni bamisolı yuqumli kasallik deb qabul qilishimiz lozim. Va ayni shu asosda bunday xurujlarni o`ta xavfli holat ekanini anglashimiz zarur”.

YANGI FAN

*A.Husainov,
milliy g`oya,
ma`naviyat va huquq
asoslari kafedrasi
dotsenti, f.f.n.*

Mamlakatimizda g`oyalar va mafkuralar tarixini, ularning falsafasini chuqr va atroflicha o`rganishga qaratilgan jiddiy e`tibor xalqimizni, ayniqsa yoshlарimizning e`tiqodini chiniqtirdi, turmushga, jamiyatga, tuzumga, ertangi kun – kelajakka bo`lgan ishonch va umidini yanada mustahkamlanishiga madad berdi.

Ma`lumki, insoniyat tarixi, bu g`oyalar tarixidir. Chunki odamzod aql-idroki bilan o`zi yashagan davrda ko`plab g`oyalar yaratdi. Inson tafakkurining oliy mahsuli bo`lgan ilmiy, diniy va falsafiy g`oyalar asosida ommaviy ta`sir vositasi – turli mafkuralar ishlab chiqildi. Ularning tub mohiyati, maqsad-muddaosini o`zida ifodalagan buniyodkor g`oyalarni hayotga tatbiq etib, insonlarni, jamiyat va davlatni boshqarildi.

Yaqin tarixdagi mafkuraviy faoliyatlarni sotsiologik tahlil qilish jarayonida ma`lum bo`lishicha, mustabid tuzum davrida g`oya va mafkurani mutlaqlashtirish, buning oqibatida inson va jamiyat hayotida yuzaga kelgan salbiy oqibatlar yaqqol ko`zga tashlandi. Mustabidchilik mafkuralari hukmronlik qilayotgan jamiyatda ijtimoiy va shaxsiy

hayotning barcha sohalariga gegemonlik qilishni, xalqlarning buyuk tarixi, boy va rang ba rang ma`naviyatini, din va e`tiqodini, milliy urf – odad an`nalarini inkor etish bilan nasl-nasabsiz “yangi inson”ni vujudga keltirishni, “yangi jamiyat”ni esa inqilobiy yo`l bilan yoppasiga qayta tuzish zarur deb hisoblab, tor hukmron tabaqa, mustabid tuzum manfaatlariga to`la bo`ysundirishni ko`zlaganlar.

Lekin o`tmish tarix, haqiqat shundan shohidlik beradiki, mustabidchilik mafkuralarining turli andozalari, ko`rinish va loyihalari asosida bitilgan demokratiyaga qarshi tuzumlar va ularning har-xil yo`sindagi olib boradigan xatti – harakatlari pirovard natijada halokatga uchrashi muqarrardir.

“G`oyalas falsafasi” predmetini o`zlashtirish jarayonida yoshlar turli ko`rinishdagi soxta, bir qarashda inson yarasiga malham bo`ladigan, jonkuyar, og`irini engillashtirib, jannatni va`da qiladigan g`oya va mafkuralarning asl mohiyati, maqsadini idrok etish va xulosa chiqarish bilan ular ongi, tafakkuri va faoliyatlarida murosasiz mafkuraviy immunitet hosil bo`lmoqda.

Hozirgi davrda g`oyaviy kurash tobora yangi – yangi qiyofaga kirmoqda. Prezident I.A.Karimov ta`kidlagandek; “Ko`p sinovlar, azobu uqubatlar, xatolar, fojialar, qatag`onlarni boshdan kechirgan, asrimiz poyoniga etayotgan, insoniyat yangi asr bo`sag`asida turgan bugungi kunda turli xil eski va yangi mafkuralarning o`zaro kurashi har qachongidan ko`ra shiddatli tus olmoqda. Rangba-rang, ba`zan bir-biriga zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o`rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs-munozara doirasidan chiqib, qonli to`qnashuvlar, ommaviy qirg`inlarga sabab bo`lmoqda, odamlar boshiga behisob qayg`u – kulfatlar solmoqda”.

O`zbekistonda hozirgi davrda millat, jamiyatni birlashtiruvchi, bayroq bo`lgan milliy g`oya va mafkurani xalqimiz ongiga singdirish, unda ilgari surilgan fikrlarni kundalik ehtiyojga aylantirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

OILAVIY HAYOT VA YOSHLAR TARBIYASI

*E.Bozorov,
milliy g`oya,
ma`naviyat va huquq
asoslari kafedrasi
dots. v.b., f.f.n.*

Farzand tarbiyasida qo`ni-qo`snilar ta`siri va mahalladagi muhitga bog`liqligi sababli o`zbeklar barcha davrlarda jamoatchilik fikriga tayanganlar. “Hovli olma, qo`sni ol”, “Qo`sning tinch bo`lsa, sen ham tinchsan”, “Qiyomat kuni qo`snidan”, degan maqollar ijtimoiy muhitning inson va jamiyat hayotidagi o`rnini, ahamiyatini yuksak darajada ifodalagan hikmatlardir.

Har bir oilaning tinchligi – yonma-yon yashayotgan qo`snilarning ham tinchligidir. Shu sababli oilalar o`rtasidagi iliq, samimiylik mahallalar va qishloqlardagi qo`ni-qo`s nichilik munosabatlarning asosiy shaklini tashkil etadi.

Er va xotin, farzandlar jamoatchilik fikrini xurmat qilgani uchun oiladagi mayda ikir-chikirlarni hammaga ovoza qilmay, tinch yo`l bilan hal qilganlar. Turmushning quvonchli kunlarida, motam damlarida qo`ni-qo`snilar maslahatchi va ko`makdosh bo`lganlar. Har bir oilani ichki ahvolini hech kim qo`ni-qo`s nisichalik yaxshi bilmaydi. Bu haqda hadislarda quyidagi hikmatli so`zlar aytilgan. “Qo`snilaringiz yaxshi odam deyishayotgan bo`lsa, demak siz yaxshisiz. Ammo, ular sizni yomon deyishayotgan bo`lsa, demak siz yomon odamdirsiz”. Jiddiy kelishmovchiliklari bo`lgan ko`plab er-xotinlar, otalar va bolalar mahalla jamoatchiligining aralashuvi, keksalarning nasihatlari natijasida yarashib ketganlar.

Jamoatchilik qo`ni-qo`snilar oldidagi bola tarbiyasiga befarq qaramagan. Yoshlar axloqiy noplilikka yo`l qo`ysa, birinchi galda ota-onasiga tanbeh bergenlar. Agar undan ham foyda chiqmasa, noqobul farzandning o`zi bilan suhbatlashib, to`g`ri yo`lga solishga harakat qilganlar. Ota-onalar ham qo`ni-qo`sni va mahalla jamoatchiligi oldida xijolat chekkanlar. O`tmishda jamoatchilikni tan olmaganlarni, qulq solmaganlarni mahalladan, qishloqdan ko`chirib yuborganlar. Ota-ona uchun mahalladan “Otangga rahmat”, degan so`zni eshitish oliy mukofot bo`lgan.

Xalqning “Onasi maqtagan qizni olma, el maqtagan ol”, degan maqolida el xolis baho berilishi mumkinligi aks etgan. Shuning uchun ham sovchi qo'yishda qizning kamchiligini, yurish turishini qandayligini qo'ni-qo'shnilaridan surishtiriladi.

Farzandlarning o'z ota-onasiga bo'lgan munosabati ham jamoatchilik e'tiboridan chetda qolmagan.

Har bir oilaning tinchligi barcha qo'ni-qo'shnilarining butun mahallaning tinchligidir. Bir uyda eru-xotin, farzandlar va ota-onalar o'rtaida doimo janjal bo'lsa, urush bo'laversa, qo'ni-qo'shnilarining tinchligi ham, yoshlarning tarbiyasi ham buziladi. Bunday janjalkash oilalarni yarashtirib qo'yan kishilar ham bundan o'zlarini uchun ham xulosa chiqarib oladilar.

Odamzodda qiziq bir xususiyat bor. Hamma boshqalarga nasihat qilishga usta-yu, ammo o'zlarini amal qilmaydilar. Go'zal xulq va ahloq to'g'risida chiroyli so'z aytgan odamlar o'zlarini hech ikkilanmay ahloqsizlik qiladilar. “Domlani aytganini qil-u, qilganini qilma”, degan fikrning mazmuni ham xuddi shu ma'noni anglatadi.

Jamoatchilik fikrining inson o'z-o'ziga anglashidagi o'rni va ahamiyati kattadir. Inson o'z-o'ziga baho berishda o'zi haqidagi fikri yuqori bo'lganligi sababli boshqalarning xato va kamchiliklarini tezroq va ko'proq ko'radi. Inson o'ziga xolis baho bera olmaganligi, to'g'ri anglash imkoniyatiga ega bo'limganligidan kelib chiqadi. Haqiqiy inson boshqalarga baho berishdan oldin o'zining kim ekanligini anglab olishi kerak. O'zini angamagan kishining fikri ham bir yoqlama bo'ladi. Odatta ashaddiy o'g'ri, kallakesar, firibgar, ig'vogar, axloqsiz kishilar ham qilmishlarini asoslash uchun ma'naviy asos izlaydilar.

Oilalarda bo'lgan kelishmovchiliklar, janjallar, axloqsizliklar kichik jinoyatlarga baho berishni aqlli, obro'-e'tiborli, katta hayot tajribasiga ega bo'lgan oqsoqollarga topshirilishi lozim.

Bu ishda samarali yo'l fe'lu-atvori muhokama etilayotgan shaxsni o'z vijdoniga murojaat qilishga o'rgatishdir. Inson o'z qilmishini xato ekanligini vijdonan anglab etgani ma'qulroq bo'ladi. Axloqiy sud – inson vijdon amri bilan o'zi ustidan o'zi hukm chiqarishidir. Agar inson biror qonunsiz ishni qilib qo'yib, jamiyat va jamoatchilik oldida javob berishi kerak bo'lsa, bu jinoyat deyiladi. Agar biror ishni qilib qo'yib, o'z-o'zi oldida javob berishi kerak bo'lsa – bu vijdonan tahlildir.

Qonun – davlatning vijdonidir. Vijdon esa insonni to`g`ri yo`lga soluvchi ichki ruhiy qonundir. Faqat vijdon orqali inson boshqalarning gapiga qulqoq soladi, axloqi va huquq mezonlariga amal qiladi, anglaydi.

Payg`ambarimizning hadislaridan birida shunday deyilgan: “Ro`za, namoz va sadaqa qilishdan ham afzalroq amal, bu ikki kishini yarashtirib qo`yishdir. Birovlarni o`rtasini buzish dinning qironidir”. Shariat qonunlarida ham er-xotinni o`rtasini buzish zulmi harom deyilgan.

O`zbek oilalarining qarindosh-urug`, qo`ni-qo`shni, mahalla kuy bilan munosabatlariiga asos bo`lgan ma`naviy omillar, hamkorlik, hamdardlik, maslahatgo`ylik, g`amxo`rlik, og`ir va engil damlarda bir-biriga elkadosh, ko`makdosh bo`lish fazilatlari ham kiradi. Bu boradagi marosimlar, an`analar, urf-odatlar bu milliy boyligimiz, qadriyatlarimizdir.

O`zbeklarda bitta bolaga etti qo`ni-qo`shni ota-onadir, degan gap bor. Keksalar ayniqsa yoshlarni yurish-turishiga befarq qaramaydilar. Har qadamda ularni tarbiyalashga, to`g`ri yo`lga solishga harakat qiladilar.

Mustaqillik yillarda O`zbekistondagi ko`plab mahallalarda va qishloqlarda bu borada ko`plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tarixan shakllangan, jamoatchilik fikri asosida saqlanib kelgan bunday an`analar etimlargacha, beva-bechoralarga, bemorlarga mehr-muruvvat, rahm-shafqat ko`rsatish masalasida ayniqsa kuchli bo`lgan. Bu borada hadisi shariflarda shunday deyilgan. “Yon qo`shnisi och turib, o`z qornini to`yg`azib yurgan odam mo`min komil emas”.

Oilani mustahkamlash, yoshlarni tarbiyalashda jamoatchilik fikrining kuchi va ta`siridan keng foydalanish hozirgi kunda ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

MILLIY ISTIQLOL VA AMIR TEMUR QADRIYATI

*A.Bo'stonov,
NVPKQTMOI
kafedra mudiri.*

Xalqimiz o'zining azaliy orzusi - mustaqillikka erishgach, tarixiy-ma'naviy merosimizni tiklash, yangi davr kishisini kamol toptirish uchun keng yo'l ochildi. Bu dolzarb vazifani hal qilish istiqlolimizning dastlabki yillardayoq, davlatimiz siyosatining asosiy yo`nalishlaridan biriga aylandi.

Milliy qadriyatlarni qayta tiklash va rivojlantirishda, ma'naviy merosni o'rghanish va boyitishda tarix alohida rol o'ynaydi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov "Tarix - xalq ma'naviyatining assosidir", "Tarixi unutilgan millatning kelajagi bo'lmaydi", - degan hikmatli gaplarni aytganda tarixning ana shu "missiyasi" nazarda tutilgan. Tarixsiz o'zlikni anglash, ajdodlarga hurmat degan ulug' tushunchalar shunchaki quruq gap bo'lib qolur edi. Vatanimiz tarixining cho'qqisi, ta'bir joiz bo'lsa, "oltin davri" - bu Amir Temur va temuriylar davridir.

Tarixda mashhur shaxslar ko'p o'tgan, lekin buyuklar barmoq bilan sanarli. Fanda "buyuk shaxs" tushunchasiga shunday ta'rif berilgan: "Xalq orasidan etishib chiqqan, o'z xalqi taqdiri va tarixida hal qiluvchi rol o'ynagan kishi" buyuk shaxsdir. Shaxslarning buyukligi o'zлari mansub bo'lgan ijtimoiy guruh, el-elat yoki xalqning fikr-o'yini, hoxish irodasini to'la ifodalab, ularning asosiy maqsad-vazifalarini tarixiy davr ob'ektiv talablariga mos ravishda amalga oshirishda hal qiluvchi rol o'ynashidadir.

Tarixiy shaxsga baho berishda uning qaysi bir sulola vakili bo'lganiga qarab, yoinki uning faoliyatiga bugungi kun talablari nuqtai nazaridan baho berilmaydi. Tarixiy shaxsga baho berishda u yashagan davr talab va ehtiyojlaridan, o'sha davr tarixiy shart-sharoitlaridan kelib chiqib, el-yurtiga qanday xizmat qilganiga, o'zidan keyin nimalar qoldirganiga qarab baho beriladi. (A.Ibrohimov. "Bizkim o'zbeklar". Toshkent; 1999 yil, 30-bet).

Sohibqiron Amir Temurni buyuk shaxs sifatida quyidagi qirralarda ko'rish mumkin:

Birinchidan, Vatanparvarlik, xalqparvarlikda. XIV asrning 60-yillarda O'rta Osiyo xalqlari oldida turgan tarixiy vazifa – bu mamlakatni mo'g'ullar zulmidan ozod qilib, osoyishta hayotni ta'minlay oladigan markazlashgan davlat tuzish edi. Xalq taqdirini, istiqbolini belgilovchi bu vazifani Amir Temur bajardi.

Ikkinchidan, bunyodkorlik sohasida, islohotchilikda. Temurning bunyodkorlik ishlari haqida gapirganda, u qurdirgan inshootlar va bog'larnigina tushunmaslik kerak. U o'z davlatida o'tkazgan islohotlar, joriy qilgan qonun-qoidalar, uning davrida mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning qaror topishi ham aslida ulkan bunyodkorlik edi. Ya'ni, oliy hukmdor boshchiligidagi davlat olib borgan bunyodkorlik ishlari mamlakat obodligiga olib kelgan.

Uchinchidan, harbiy-siyosiy sohada. Amir Temur davlat arbobi va sarkarda sifatida tug'ma iste'dod egasi bo'lgan. U markazlashgan davlat boshqaruv tizimini yaratdi, bu davlatda adolat tamoyillari asosida qonunlarning kuchli tizimi amal qilgan. Bu qonunlarni Temurning o'zi ishlab chiqqan. Sohibqiron Amir Temur tashkiliy jihatdan mukammal, yaxshi qurollangan, o'ta intizomli, yangi tipdag'i qo'shinga asos soldi.

To'rtinchidan, Amir Temuring yana bir buyukligi, ehtimolki eng asosiysi bo'lib tuyuladigan va barcha tarixchilar tomonidan yakdil e'tirof etilgani – bu Sohibqiron o'zining harbiy-siyosiy faoliyati bilan dunyo tarixiy jarayonini o'zgartirib yuborganidadir.

Amir Temur shaxsiga, uning faoliyatiga holisona, odilona baho berish faqat mustaqillik sharofati bilangina mumkin bo'ldi. Bu ishda shaxsan Prezidentimiz Islom Karimovning o'zi tashabbus ko'rsatdi. Bu nima uchun zarur edi? Amir Temur nomining, Buyuk Temur omilining milliy istiqlolimizga qanday bog'liqligi bor?

Birinchidan; tariximizni qayta tiklash, uni mustaqillik davri ruhidan kelib, hur fikr bilan yozish kerak edi. Amir Temur esa tariximizning cho'qqisidir.

Ikkinchidan; Amir Temur qadriyati mustamlakachilik davrida zavol ko'rgan milliy tuyg'ularimizni, milliy ongimizni qayta uyg'onishi uchun, o'zbekning o'zligini anglashi uchun zarur edi.

Uchinchidan; yosh avlodni ulug' ajdodlarimiz va ular bizga qoldirgan meros bilan faxrlanish ruhida tarbiyalashda, milliy g'ururni yuksaltirishda Buyuk Temur shaxsi katta ahamiyatga ega. Sohibqiron bobomizning "Bizkim mulki Turon, amiri Turkistonmiz. Bizkim millatlarning eng ulug'i, Turkning bosh bo'g'inimiz", - degan gapi

xalqimizning o'tmishda qanday xalq bo'lganini, biz kimlarning avlodlari ekanimizni ko'rsatib turibdi.

To'rtinchidan; Amir Temur qadriyati bizga demokratik huquqiy davlat qurishda, "O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat" degan g'oyani ro'yobga chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Temur o'z davrida qudratli, intizom va adolat asosiga qurilgan davlat barpo qildi. Uning butun siyosiy faoliyati o'z ona Vatani mustaqilligi, osoyishtaligi, ulug'vorligi uchun kurash bilan o'tdi. Buyuk Sohibqironning davlat boshqaruvi sohasida qilgan ishlari, o'g'il-nabiralariga, biz avlodlarga qilgan nasihatlari juda qimmatli ibrat namunasidir.

Beshinchidan: Amir Temur omili O'zbekiston jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek, "Amir Temurning tarixiy xizmatlaridan biri shundaki, u tufayli Osiyo va Evropa davlatlari yagona geografik- siyosiy makonda ekanliklarini his qildi". O'tmishda, hususan Temur davrida qudratli davlat qura olgan xalq yaqin kelajakda yana shunday cho'qqilarga ko'tarila olishi mantiqqa mos keladi. Amir Temur Mavarounnahrni tor, biqiq holatdan xalqaro doiraga olib chiqdi, uni boshqa geografik- siyosiy hududlar bilan bog'lab, ular o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'ydi. Prezidentimiz Islom Karimov boshchiligidagi O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati ham ayni shu ezgu maqsadlarga qaratilgan. Umuman, Amir Temurdan bugungi kun uchun zarur bo'lgan juda ko'p ibratli narsalar topamiz. Bu haqda mamlakatimiz rahbari "Amir Temur tuzuklarini o'qisam xuddi bugungi zamoning katta-katta muammolariga javob topgandek bo'laman", - deganda naqadar haq bo'lganiga ishonch hosil qilamiz.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda Buyuk Sohibqiron Amir Temur ruhini shod etish, hurmatini joyiga qo'yish uchun juda ko'p ishlar qilindi. Ayniqsa, Amir Temurning 660 yillik yubileyi bilan bog'liq o'tkazilgan tadbirlar ko'pchilikka yaxshi ma'lum.

Biz yubiley tafsilotlariga ko'p to'xtalib o'tirmay, uning bir jihatiga e'tibor qaratmoqchimiz. Buyuk Sohibqironning 660 yillik yubileyi dunyoning 50 dan ortiq mamlakatida nishonlandi. Parijdagi YuNESKO qarorgohida bu nufuzli xalqaro tashkilot boshchiligidagi 1996-yil aprelda "Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va maorifning gullab yashnashi" mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya va ko'rgazma tashkil qilindi. O'zbekistonda o'tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiyada 30 dan ortiq mamlakat vakillari qatnashdi. Yuqoridaq dalillar o'zbek tarixiga,

Amir Temur siy whole dunyoda qiziqish juda katta ekanini ko'rsatib turibdi. Demak, bizning tarixiy merosimiz, Sohibqiron siy whole nafaqat bizniki, balki umumbashariy qadriyatdir. Bu qadriyat esa mamlakatlar va xalqlar o'rtasida hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilaveradi.

MILLIY G'OYA VA MAFKURANI TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIGA SINGDIRISHDA YANGICHA YONDASHUV

*B.Abdurahmonova,
NVPKQTMOI
katta o'qituvchisi.*

Har bir jamiyat xalqni muayyan maqsadlar va manfaatlar yo'lida uyuştirib turuvchi, safarbar etuvchi g'oyalar va ta'limgardarga ehtiyoj sezadi. Odamlarning, ijtimoiy guruhlarning boshini qovushtirib, birlashtirib turadigan mafkuraviy ta'sir bo'lmasa jamiyatda taraqqiyot bo'lmaydi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy inqiroz avj olib ketadi. Demak jamiyatni g'oya va mafkurasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek ,”Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar”. Jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlari sari birlashtirib, uning o'z muddaolariga erishish uchun ma'naviy ruhiy, kuch- quvvat beradigan poydevor ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy tarbiyani yuksak darajaga ko'tarish hozir eng dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mafkuraning birdan bir manbai tarixdir. Shuning uchun biz o'z tariximizni har tomonlama chuqr o'rganish va tahlil qilishimiz zarur. Shundagina xalqimizda, xususan, yoshlarimizda milliy g'urur, vatanparvarlik, insonparvarlik, o'z o'tmishi tarixi, madaniyati, manaviy merosi bilan faxrlanish his – tuyg'ulari shakllanadi. Milliy mafkura vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog'lab turishga, shu asosda oldimizda turgan vazifalarni hal etishga yo'l ochib borishi xalqimizni shu ezgu maqsadga da'vat etuvchi g'oya bo'lishi kerak.

Bu maqsadlarga erishish uchun xalqimizning, yoshlarimizning ongi va tafakkurini o'zgartirishimiz lozim. Bu vazifani odamlarning fikrini,

dunyoqarashini boshqarish yo`li bilan emas, ularning tafakkurini boyitish, unga yangicha ma`no- mazmun berish bilan bajarish kerak.

Shuningdek, ta`lim - tarbiya jarayonida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ezgu ishlarga ixlosmand etib tarbiyalash zarur. Ammo bu ish oson ish emas. Ahmad Donishning inson haqidagi fikrlarini eslasak: "Inson zuvalasi – shaytoniy, hayvoniylar va malakoni xislatlardan iborat qorilgan xamirdan uzilgandir". Shu bois u doimo xato qilishga moyildir. Bu haqda I. Karimov quyidagilarni ta`kidlagan edi. "Aslida, mening nazarimda, odamning qalbida ikkita kuch- bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha o`zaro kurashadi. Afsus bilan ta`kidlashim lozim, tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, inson tabiatidagi insoniylikdan ko`ra, vaxshiylik, ur-yiqit instinkti, ya`ni xatti-harakatlarini qo`zg`atib yuborish osonroq".

Insondagi bu qusurlardan forig` bo`lish uchun milliy g`oya va mafkuraga ixlos qo`yish va e`tiqod darajasiga ko`tarish joiz.

Inson harakat qilib ilm, bilimga, ma`rifatga intilsa, shaxs ma`naviyati yuksaladi, shaxs ma`naviyati esa jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir.

Yaponlarda chaqaloq tug`ilsa, oilada, mакtabda umuman ta`lim-tarbiya jarayonida shunday so`zlarni, ya`ni "Bizning (Yaponiya hududi nazarda tutiladi) erimiz kam, boyliklarimiz ham kam, boyligimiz seni o`zingsan, sen o`zingga ishon, harakatingga, mehnatingga, bilimingga, aqlingga ishon" deb uqtirishar ekan. Bolaga, insonga ishonch orqali ezgu amallarni singdirishar ekan. Ularning "oldin biz miyamizni to`ydiraylik, miyamiz qornimizni to`ydiradi", - degan hikmati ibratlidir.

"Shunga aminmanki, - degan edi prezidentimiz, odam birgina yaxshi so`z tufayli, majoziy qilib aytganda tog`ni talqon qilishi mumkin. Afsuski biz keyingi vaqtarda odamlarga bunday munosabatda bo`lishni deyarli unutib qo`ydik. Chunki, odamga ishonch uni ulug`laydi, o`z kuchiga ishonch bag`ishlaydi. Boshqacha tomondan ishonchsizlik, xolisona munosabatda bo`lmaslik odamlarning hafsalasini pir qiladi va shu tufayli biz qanchadan-qancha iste`dodli kishilarni boy bermoqdamiz".

Ta`lim-tarbiya jarayonida milliy g`oya va ma`naviyat asoslarini o`qitish samaradorligiga erishish uchun quyidagi masalalarga alohida e`tibor berish darkor.

G`oya haqida to`liq tasavvurni shakllantirish, o`z ma`no-mohiyatiga ko`ra g`oyaning buniyodkor va vayronkor bo`lishi haqida to`g`ri bilimlar hosil qilish.

1. Milliy g`oya, milliy mafkurani insonparvarlik mohiyatini ko`rsatish asosida mustaqillikni – buyuk ne`mat, qadriyatligini, uni asrab-avaylash, mustahkamlash va abadiy saqlab qolishni yoshlarning qalbi va ongiga singdirish.

2. Diniy ekstremizm, axborot va mafkuraviy xurujlar avj olgan, bugungi globallashuv davrida fikr - mulohazali, fahm- farosatli, mustaqil fikrli yoshlarni tarbiyalashda o`qitishning eng ilg`or usullaridan, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish zarurligi.

3. O`zaro ishonch, hamfikrlilik muxitini shakllantirib, mavzularni sharxlashda ta`sirchan hayotiy misollar, matbuot materiallaridan keng foydalanish.

Emotsional holatni uyg`otish orqali milliy g`urur va iftixorni, vatanparvarlikni shakllantirish. Darslar faqat o`quv xonalarida emas, muzeylarda, ma`naviyat markazlarida, xotira maydonlarida go`zal tabiat qo`ynida o`tkazish maqsadga muvofiqdir.

JADID MAKtablari TARIXIDAN

*T.Q.Qozoqov,
milliy g`oya,
ma`naviyat va huquq
asoslari kafedrasi
katta o`qituvchisi, t.f.n.*

*B.Abdurahmonova,
NVPKQTMOI
katta o`qituvchisi.*

Turkiston xalqlari turmushidagi har bir yangilik mustamlakachi ma`murlar nazaridan chetda qolmagan, albatta. XX asr bo`sag`asida o`lkamizda yangi usul maktablarining paydo bo`lishi ham ularni g`oyatda tashvishga sola boshladi.

O`sha davrda chop etilgan rus tilidagi gazeta va jurnallarda mahalliy xalqlarning maorif tizimi, yangi va eski maktablar masalalarini yoritishga keng o`rin berilgan. Turkiston bosib olingach, bu erda

mustamlakachilar o`zlarining rus-tuzem maktablarini ocha boshladilar. Xalq maorifi sohasida hukumat rus-tuzem maktablari bilan yonma-yon, yangi usul maktablarining paydo bo`lishi sira ko`z yumib bo`lmaydigan hol ekanligi, bu maktablar zamon talablari asosida kelib chiqqanligini «Turkestanskie vedomosti» gazetasining 1909 yil 1-sonida ta`kidlab o`tiladi.

Eski usul maktablari bolalarga asosan diniy tarbiya berish bilan cheklanganligi, zamonaviy ilm-fanlarning o`qitilishi bu maktablar uchun yet hodisa ekanligini va shu sababli ham bu maktablar mustamlakachilar uchun unchalik xavf tug`dirmasligini chor ma`murlari yaxshi tushunib etgan holda, yangi usul maktablariga jiddiy e`tibor qarata boshladilar. Shu sababli ham Turkistonda maktab ishlarini asosiy vazifalardan biri bo`lishi kerak deb bildilar: «..Dars berish uslublariga ko`ra, dasturlar bo`yicha va butun tuzilishi bo`yicha bu yangi maktablar hayot talablariga nisbatan javob beradi... Bu yangi usul maktablarasi asosiy e`tiborga loyiqidir...Ular xalq turmushiga kira borib, erlilarni qo`zg`oltiradi va ularni qoloqlikdan chiqaradi».

Turkiston o`lkasi o`quv yurtlari bosh nazoratchisi O. Kerenskiy 1909 yil 12 yanvarda va 1910 yil 27 yanvarida Farg`ona viloyati harbiy gubernatoridan yangi usul maktablari, ularning ochilish sabablari, qachon va kimlar tomonidan ochilgani haqida ma`lumot berishni so`raydi. Farg`ona viloyat o`quv yurtlari inspektori F. Egorov Turkiston o`lkasi o`quv yurtlari inspektoriga bunday maktablar dastlab ruxsatsiz va yashirin suratda ochilganligi haqida ma`lumot beradi. Shu bilan birga u bu maktablarning yopilishi yoki faoliyatining ta`qiqlanishi mahalliy aholi orasida keskin norozilikning kelib chiqishiga olib kelishi mumkinligini ta`kidlab o`tadi. Yangi usul maktablarining yopish uchun qonuniy asos bo`limganligi sababli, ular uchun alohida dastur va qonun ishlab chiqishni taklif qiladi.

Yangi usuldagagi maktab xonalarining ichki tuzilishi, eski maktablardan parta, yozuv taxtasi, geografik xarita va o`qituvchi uchun stol-stulning borligi bilan ajralib turgan. Maktablarda bolalar 2-3 yil o`qishni davom ettirganlar. Usuli savtiya maktablar eski usul maktablaridan ta`limning sifati bilan ham farq qilgan. Bu e`tiroflar o`sha davr matbuotida ham o`z aksini topgan. Masalan, Andijondagi Azim Qodirov maktabi 3 sinfli bo`lib, 1 chi sinfda bolalarga o`qish va yozish, 2 chi sinfda tajvid, hisob, 3 chi sinfda esa ibodati islomiya, sarfi turkiy o`rgatilgan. 1900 yil may oyida Otobek qozi ishtirokida ushbu maktab

o`quvchilaridan imtihon olingen. o`quvchilar imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirganlar. Imtihon ishtirokchilaridan Tojiddinbek Otabekov yozganidek: «...Eski zamon maktablari birlan usuli jadid maktabini farqi nihoyat darajada ma'lum va ravshan bo`ldi. Usuli jadid maktabi birlan eski zamon maktablarini bir joyga bormoq uchun otash aroba birlan piyoda odimga misol qilsak ham to`g`ridur...».

Usuli savtiya maktablari sonining ortib borishi ularni darslik va boshqa o`quv qo'llanmalari bilan ta'minlash muammosini keltirib chiqardi. Bu vazifalarni ham yangi maktab muallimlari o`z zimmalariga oldilar. Farg`ona taraqqiyparvarlaridan A. Ibodiydan boshqa yana A. Zohiriy ham 1916 yili «Imlo» kitobini yozdi va kitobni Qo`qondagi «G`ayrat» kutubxonasi tomonidan nashr ettirdi. H. H. Niyoziy esa, maktablар uchun «Yengil adabiyot», «O`qish kitobi», «Qiroat kitobi» kabi kitoblarni yozadi. Shuningdek, Namangan taraqqiyparvarlaridan Dadamirza qori ham «Miftah ul-avval» deb nomlanuvchi darslik yozgan edi.

Yangi usul maktablaridagi o`qituvchilarning ko`pchiligi madrasalarda tahsil olgan bo`lib, ba`zilari esa xuddi shunday maktablarni tamomlagan kishilar edilar. Darslar o`quv jadvali asosida, tsenzura ko`rigidan o`tgan darsliklar bo`yicha olib borilgan. o`quvchilar soni 50 tadan 145 tagacha etgan. Barcha maktablarda har oyiga o`qish uchun 50 tiyindan 1 so`m 50 tiyingacha haq olingen. Kambag`al oilalarning bolalari esa ba`zan to`lovdan ozod etilganlar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YOSHLARNING DEMOGRAFIK HOLATI

*O.R. Topildiev,
milliy g'oya,
ma`naviyat va huquq
asoslari kafedrasi
katta o`qituvchisi, t.f.n.*

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yoshlarga nisbatan alohida g`amxo'rlik ko`rsatilib, ularga oid davlat siyosati izchil ravishda amaliy hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Bu siyosatning mazmun-mohiyati, asosiy yo`nalishlari, yoshlarga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy kafolatlar O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 20 noyabrdagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to`g`risida"gi qonunida belgilab qo`yilgan ("O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to`g`risida"gi qonun 1991 yil, 20 noyabr'. «Xalq so`zi», 1992, 8 yanvar.). Qonunga ko`ra yoshlarga oid siyosat O'zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo`nalishi bo`lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidorini to`la-to`kis ro`yobga chiqishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shartsharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir. Bu qonunning qabul qilinishi, o'sib kelayotgan yosh barkamol avlodni tarbiyalash yuzasidan "Ta`lim to`g`risida"gi qonunni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni, "Maktab ta`limini rivojlantirishning umummiliy dasturi" kabi bir qator hujjatlarning ishlab chiqilishida poydevor sifatida xizmat qildi. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda yoshlar ijtimoiy-siyosiy kuch sifatidagi faoliyatining muhimligi va amaliy ahamiyati, O'zbekistonda 1991-2011 yillarda amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, jamiyat hayotining barcha jabhalarini modernizatsiyalash va yangilash masalasi bilan chambarchas bog`liqligida hisoblanadi.

O'zbekistonda zamonaviy demografik vaziyatning xarakterli qirralaridan biri mehnatga layoqatli aholining mutloq yuqori darajada o'sishi bo`lib, bu uning bandligini ta`minlash muammosini oshiradi. O'zbekiston Respublikasi o`zining demografik holati bo'yicha o`ziga xos hisoblanadi. O'rta Osiyoda O'zbekiston aholisi eng zich joylashgan mamlakat bo`lib 36 foiz aholi shaharda va 64 foiz aholi qishloqlarda

istiqomat qiladi. Aholining 39 foizini mehnatga layoqatli davrgacha yoshdagilar, 54 foizini mehnatga layoqatli va 7 foizini mehnatga layoqatli yoshdan katta yoshdagilar tashkil etadi. Aholi soni 1991 yilda 20857,0 mln., 1995 yilda 22684,0 mln., 2000 yilda 24650,4 mln., 2005 yilda 26167,0 mln. kishi bo`lgan bo`lsa, 2008 yilga kelib 27302,7 mln. kishi bo`lgan holda, 7 yoshdan 30 yoshgacha bo`lgan yoshlar 13417656 nafarni tashkil qildi (O`zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo`mitasining joriy arxivi. 1991-2008 yil ma`lumotlari. [http:// www.stat.uz](http://www.stat.uz).).

O`zbekiston Respublikasi aholisi 2008 yilda 27302700 kishini tashkil etgan bo`lsa, shundan xotin-qizlar soni 13732064 kishini tashkil qildi. Aholining 1 dan 30 yoshgacha bo`lgan yoshlari soni 17080000 ming nafar bo`lib, shundan qariyb 9 mln. nafarini xotin-qizlar tashkil etdi. Yoshlarning 6 milliondan ortig'i shaharlarda, 11 millionga yaqini esa qishloqlarda istiqomat qildilar (O`zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo`mitasining joriy arxivi. 1991-2008 yil ma`lumotlari. [http:// www.stat.uz](http://www.stat.uz)). 2011 yilga kelib O`zbekiston Respublikasi aholisi 28,5 million kishini tashkil qilayotgani va yoshlar asosiy kuch ekani muhim ahamiyat kasb etmoqda (O`zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo`mitasining joriy arxivi. 1991-2008 yil ma`lumotlari. [http:// www.stat.uz](http://www.stat.uz)).

Yoshlar haqida fikr yuritganda, I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini ta`kidlash o`rinli: "Ma`lumki, bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo`lgan yoshlar 10 million 360 ming nafarni yoki umumiyligi aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo`lganlar esa 17 million 80 ming nafarni yoki umumiyligi aholining 64 foizini tashkil etadi. O`z-o`zidan ayonki aholining aksariyat qismini tashkil etadigan yoshlarning echilmagan muammolariga e'tiborimizni jalb etish, ularni hayotimizda haqiqatdan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish masalasi jamoatchilikning diqqat markazida turishi shart" (Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo`lida. 16-jild. – Toshkent: O`zbekiston, 2008. – B. 163.).

Bundan ko`rish mumkinki, jamiyat ijtimoiy demografik holatida yoshlar katta va shijoatli kuchdir. Bu kuchni mamlakatning chinakam suyanchi va tayanchiga aylantirish uchun yoshlarga g`amxo'rlik hamda e'tibor davlat siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biri bo`lib kelmoqda. Mustaqillik davrida o`zining tarixiy-madaniy o`rni, demografik xususiyatlari va ijtimoiy harakatchanligi nuqtai-nazardan yoshlar qatlami

jamiyatda alohida o`rin tutayotganligi ijobjiy holdir. Yoshlarning bugungi jamiyatdagi o`z o`rnini belgilashi, maqsad va orzularini aniqlashida milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar mezoni muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada ularning maqsad va orzularini to`g`ri belgilab olishga yordam berish, bu jarayonni ilmiy va rejali tashkil etishga alohida e`tibor berish lozim.

“Yoshlar” tushunchasini V.Pavlovskiy quyidagicha ta`riflaydi “Yoshlar - bu o`smir va katta, balog`at yoshidagi insonlarning umumiyligi o`rtasidagi o`tish holatini egallovchi 13-14 yoshdan 29-30 yoshgacha bo`lgan kishilarning alohida biosotsial yosh guruhidir”. YuNESKO 17-25 yoshdagi shaxslarni, sotsiolog olimlar va iqtisodchilar 16-30 yoshgacha bo`lgan shaxslarni yoshlar jumlasiga kiritadilar. S.N.Ikonnikova esa “Yoshlar 16 yoshdan 30 yoshgacha bo`lgan yoshlarni o`z ichiga oluvchi sinfiy va boshqa belgilari, jamiyatda ularning roli, faoliyat funktsiyalari va turlari, shuningdek ma`naviy qiyofasi, dunyoqarashi, qiziqishlari, ijtimoiy-ruhiy xususiyatlariga muvofiq ichki tabaqalarga bo`lingan ijtimoiy-demografik guruh hisoblanadi” degan fikrni bildiradi. “Yoshlik” sotsiologik entsiklopediyada yoshlar insonning yosh bosqichi sifatida ta`riflanadi. Demak yoshlar – bu o`zlarining jamiyatdagi mavqeい, yoshi, ijtimoiy-ruhiy xususiyatlariga qarab farqlanadigan ijtimoiy demografik guruh hisoblanadi.

Umuman olganda yoshlarning yosh jihatidan tavsiflanishi turli mamlakatlarda turlicha hisoblanadi. Masalan, O`zbekistonda yoshlar 30 yoshgacha deb belgilangan bo`lsa, Ispaniyada yoshlar 14-30 yoshdagilar, Lyuksemburgda 15-25 yoshdagilar, Angliya va Gollandiyada yoshlar alohida guruhga ajratilmasada 25 yoshgacha belgilangan. Evropaning aksariyat mamlakatlarida, AQSh va Yaponiyada qabul qilingan “yoshlar” tushunchasi 13-14 yoshdan to 29-30 yoshgacha belgilanadi. Rossiyaning amaldagi qonunchiligiga muvofiq, yoshlar 14 yoshdan 30 yoshgacha bo`lgan fuqarolardir.

Yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayoni o`z ichiga zaruriy ravishda yoshlarning jamiyatga qo`shilishi, ularning ijtimoiy hayot munosobatlarga moslashuvi hamda ijtimoiy taraqqiyotga ta`siri kabilarni qamrab oladi. Jumladan bugungi kunda O`zbekistonda ruhiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy omillar bilan ifodalanadigan o`ziga xos demografik holat yuzaga keldi. Unga muvofiq 30 yoshgacha bo`lgan fuqarolar yosh toifalarining quyidagi chegaralarini belgilab olish mumkin:

1. 0-6 yosh - maktabgacha bo`lgan yosh;
2. 7-17 yosh - maktab yoshi;
3. 18-30 yosh - fuqarolik yoshidan iborat.

Yoshlar ijtimoiy yo`nalashlarini, muammolarini tadqiq etish ushbu o`ziga xos ijtimoiy guruhni boshqalardan farqlashni nazarda tutadi.

Demograf olimlarning ma`lumotlariga qaraganda, respublikada tug'ilish sur`ati hozirgi darajada qolsa, 2025 yilga borib aholi soni 34,7 million kishini tashkil qiladi. 2008 yilga kelib O`rta Osiyodagi mehnat resurslarining 40 foizi O`zbekistonga to`g`ri kelmoqda. Aholi soni bo`yicha O`zbekiston MDH mamlakatlari orasida Rossiya va Ukrainadan keyin uchinchи o`rinni egallaydi. Holatning kamdan-kam uchraydigan tomoni shundan iboratki, aholining 36,7 foizi 16 va ungacha bo`lgan yosh guruhiга kiradi. Solishtiradigan bo`lsak, AQShda bunday kategoriyadagi aholi 24,3 foiz, Rossiyada esa 18,1 foizni tashkil qiladi.

Umuman olganda, tug'ilish ko`rsatkichining kamayishi respublikaning barcha viloyatlarida ham kuzatilgan. Agar, 1991-2005 yillarda tug'ilishning umumiy koeffitsienti respublikada 14,2% ga kamaygan bo`lsa, bu ko`rsatkich Toshkent shahrida 4,4% ga, Xorazm, Farg`ona, Sirdaryo, Navoiy, Buxoro, Toshkent va Andijon viloyatlarida 10,8-14,9% ga, Qoraqalpog`iston Respublikasi, Jizzax, Namangan, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida 16,2-18,9 % ga, tug'ilish ko`rsatkichi doimo yuqori bo`lib kelgan Surxondaryo viloyatida esa 20,6 % ga kamaygan. Qiyosiy tahlillardan ko`rinib turibdiki, yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida respublika va uning barcha hududlarida tug'ilish ko`rsatkichi keskin kamaygan.

Demografik jarayonlar zamонавиy tendentsiyalarining tahlili istiqbolda aholi yoshi tarkibida qariyalar salmog`ining oshishini ko`rsatmoqda. Bu esa o`z navbatida istiqbolda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo`nalishlarida ham o`ziga xos o`zgarishlarni talab etadi. Aholi soni tug'ilish va o`lim hisobiga doimo o`zgarib boradi. Tug'ilish jarayoni aholi sonining ko`payishiga olib kelsa, o`lim uning kamayib ketishiga sabab bo`ladi. Tug'ilish va o`lim jarayonlari asosida aholining tabiiy o`sish sodir bo`ladi.

O`zbekiston Respublikasida tabiiy o`sish Ukraina va Boltiqbo`yi respublikalariga qaraganda o`n baravar, Rossiyaga qaraganda olti baravar yuqori. Respublikada tug'ilish ko`pligi sababli ko`p bolalik oilalarning mutlaq soni ko`payib bormoqda. Mintaqada demografiya va ekologik rivojlanish sur`atlari o`rtasida juda katta nomuvofiqlik saqlanib

qolyapti. Aholi salomatligini yaxshilashda, onalar va bolalar o`limini kamaytirishga erishishda demografik holatni muvofiqlashtirish muhimdir. Demografik holatni muvofiqlashtirish ikki maqsadni - bolalar sog`lig`ini mustahkamlash va ular o`limini kamaytirishni nazarda tutadi.

1991-2005 yillarda O`zbekistonda shahar aholisining o`rtacha yillik o'sish sur'ati 0,9 foiz bo`lgani holda Surxondaryoda bu ko`rsatkich 3,2 foizni, Jizzaxda – 2,8 foizni, Qashqadaryoda – 2,4 foizni, Namanganda – 2,3 foizni, Sirdaryoda – 0,6 foizni, Buxoroda – 0,7 foizni, Xorazmda – 0,8 foizni tashkil etdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, poytaxt Toshkent shahri aholisi keyingi o'n yillikda ko`paymadı, balki uning soni 2,1 million kishi atrofida muvozonatlashdi.

O`zbekistonda tug'ilish jarayonining nisbatan yuqoriligiga asosiy sabablardan biri oila qadriyatları hamda nikohdan o'tish jarayonining yuqoriligi sabab bo`lmoqda. Oilaning tashkil topishida esa, o`z navbatida, nikoh va ajralish jarayonları muhim omildir. Nikoh erkak bilan ayolning tarixan tarkib topgan, jamiyat tomonidan muayyan tartibga solib turadigan o`zaro hamda bolalariga nisbatan munosabatlari shaklidir. Nikohlanish jarayoni turli xil mamlakatlarda o`ziga xos bo`lib, har bir millatning milliy qadriyatlarini aks ettiradi.

Yosh oilalar farzandlarning soni nechta bo`lishi kerakligi masalasiga turlicha yondoshadilar. Bunday yondashuv er-xotinning ma'lumot darajasiga va ijtimoiy mavqeiga bog'liq. Agar er-xotin oliv va tugallanmagan oliv ma'lumotli bo`lsalar, 2-3 farzand bo`lishini, ularning ma'lumoti o'rta yoki to`liqsiz o'rta bo`lsa, oilada 4-5 farzand bo`lishini maqbul deb bilganlar.

O`zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush tarzi va faoliyat ko`rsatish sharoitlarini yaratishdir. Daromadlar bilan xarajat muvozanatini saqlash katta ahamiyatga molik. Xarajatlar aniqlanganda eng avvalo, ularning eng zaruriga pul ajratish maqsadga muvofiq. Eng zarur xarajatlarga: ovqatlanish, davolanish, kommunal xizmat va bilim olish sarflari kiradi. Kiyinish, dam olish, uy jihozlash, tomosha va nihoyat to`y-marakalar esa ikkinchi darajali sarflarga kiradi. Oila mablag`ini oila a`zolarining ehtiyojlariga qarab, zarurlarini ajratib olib, to`g`ri taqsimlash davr talabidir. Kishi boshiga 9 m^2 va undan ko`proq turar joy to`g`ri keladigan oilalardagi bolalarning sog`lomligi 5 m^2 turar joy to`g`ri kelgan oilalarga nisbatan 7-8 barovar yuqoridir. Hozirgacha oilada eng katta xona bolalarga emas, mehmonlarga ajratiladi. eng yaxshi, qulay sharoit bolalar

uchun yaratilishi kerak, degan ko`nikma ayrim oilalarda hali shakllanmagan. Oilalarda bolalar uchun eng yaxshi sharoit yaratilishini targ`ib etishga ahamiyat berish lozim. Bu esa sog`lom turmush tarzini shakllantirishning muhim omilidir.

Demak, O`zbekistonda bugun yangicha fikrlaydigan, o`z kelajagini o`zi yaratishga harakat qilayotgan, jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash bilan, davlatning taraqqiyotiga o`ziga xos munosib hissa qo`shayotgan yangi avlod vakillarining ijtimoiy hayotga kirib kelishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda yoshlarning ijtimoiy demografik holati va muammolarini tahlil etish, O`zbekiston Respublikasi tomonidan amalga oshirilayotgan amaliy ishlarda o`z echimini topib bormoqda. O`zbekiston ijtimoiy demografik ahvolining tahlili shuni ko`rsatadiki, mamlakat aholi tarkibida yoshlar ko`pchilikni (64%) tashkil qiladi. Mamlakat ijtimoiy hayotida ham yoshlar asosiy kuch bo`lib, ular iqtisodiy-madaniy taraqqiyotda ham muhim rol' o`ynashmoqda.

O`ZBEKISTONNING MUSTAQILLIKKA ERISHUVI VA O`ZBEK MILLIY DAVLATCHILIGINING TIKLANISHI

*B.Tillaev,
milliy g`oya, ma`naviyat
va huquq asoslari
kafedrasi o`qituvchisi.*

Hozirgi kunga kelib, O`zbekistonning milliy davlatchiligi poydevorini mustahkamlash sohasida puxta va jiddiy ishlar olib borilmoqda. Mustaqillikka erishganimizdan keyingina xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub`ektiga aylangan suveren O`zbekiston yangi davlatchiligini qurish va rivojlantirishga kirishdi. Boshqacha qilib aytganda, faqat istiqlolgina xalqimizga o`z Vatanida o`zini erkin his qilish, chinakam milliy qadriyatlarni tiklash, o`z milliy davlatchiligini shakllantirish imkonini berdi.

Yangi o`zbek davlatchiligini qaror toptirishning birinchi bosqichidagi vazifalar bajarilishi O`zbekistonning xalqaro obro`-e`tibori ortishi va mustahkamlanishda, jahon hamjamiyatidagi ko`plab mamlakatlar bilan do`stlik va hamkorlik munosabatlarini o`rnatishda va

rivojlantirishda o'z ifodasini topdi.

Bunday jarayonda esa davlatchilimiz tarixiga oid yozma nazariy manbalarning o'rnii beqiyosdir. Nizom ul-Mulkning «Siyosatnoma», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Amir Temurning «Temur tuzuklari» asarlari ana shunday «oltin meros» manbalar sirasiga kiradi. Shu narsaga alohida urg'u berib ta'kidlamoqchimizki, bu asarlarda ilgari surilgan adolatli jamiyat, adolatli hukmdor g'oyalari, ya'ni «demokratik jamiyat» haqidagi g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Prezidentimiz I. A. Karimovning olib borayotgan siyosati yuqoridaagi fikrlarimizni to`la-to`kis tasdiqlaydi. Hozirgi kunda iqtisodiyotni tubdan isloh qilinishi, jamiyatni demokratlashuvi, tashqi siyosatda tinchlik masalasini ustuvor bo`lishi, ilm-fanga, yoshlarga katta e'tibor berilishi, sog'lom avlod to`g'risida qayg'urish, mintaqada, davlatimizda tinchlikni mustahkamlashga katta e'tibor berish kabi masalalarni davlat siyosati darajasiga ko`tarilishi - bularning barchasi milliy davlatchilimiz an`analarini tiklanishidan bo`lak narsa emas.

Prezident Islom Karimov rahbarligida olib borilayotgan siyosatning bosh maqsadi - O'zbekistonda huquqiy-demokratik, adolatli davlatni barpo etish, insonparvar fuqarolik jamiyatini vujudga keltirishdan iborat. Davlatimiz etakchisi xalqimizning azaliy turmush tarziga aylangan ma`rifat va adolatni mamlakatda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishdir deb biladi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» hamda Nizom ul-Mulkning «Siyosatnoma» asarlaridan biz hozirgi kunda ham tarbiya vositasi sifatida foydalanmoqdamiz. Masalan, Yusuf Xos Hojib o'zining «Qutadg'u bilig» asarida «hokimiyat» sof dunyoviy xarakterga ega deb bilib, jamiyatda diniy qadriyatlarning o'rnini ko'rsatib bergen, ya'ni jamiyatda diniy va dunyoviy nufuzning o'z chegaralari bor. Bugungi kunda ham yurtboshimiz I. A. Karimovning olib borayotgan siyosati ushbu nazariy manbalar bilan hamohangdir.

Prezident Islom Karimov rahbarligidagi davlatimiz bugun o'zbek milliy davlatchiligini bunyod etishda ham, olis o'tmishni baholashda ham, porloq istiqbolni belgilashda ham Amir Temur siymosi, uning tafakkuri, siyosati, boshqaruvdagagi taktika va strategiyasiga hurmat bilan qaralmoqda. Ayni paytda Amir Temur shaxsi va uning boy merosini, ulkan maktabini bugungi kunning muqaddas darsxonasi deb biladi. Bu holatni 1993 yil Toshkentda Amir Temur haykali ochilishiga

bag`ishlangan tantanali marosimda aytgan ushbu so`zlaridan bilib olishimiz mumkin.

«Vatanimiz istiqbolini yanada mustahkamlash, uni himoya qilish, yurtimiz shon-shavkatini yuksaltirish, adolat, insof va diyonat hukmron bo`lgan erkin jamiyat, mehnatkash xalqimizga munosib farovon hayot qurish bizning insoniy va fuqarolik burchimizdir.

Biz orzu etgan buyuk davlatni bunyod qilish barchamizdan mustahkam iroda, iyomon-e`tiqod, milliy g`urur tuyg`usi, buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan ma`naviy bisotga ega bo`lishni talab qiladi. Bilaklarimizda kuch, qalblarimizda kelajakka ishonch bo`lmog`i shartdir.

Mamlakatimizning markazida, qadimiy va go`zal poytaxtimiz - jonajon Toshkentimiz o`rtasida qad ko`targan ulug` bobomiz siyoshi xalqimizga faxr va g`urur baxsh etmog`i muqarrar! Bu siymo mard, tanti, halol va g`ayratli xalqimizni birlashtirishda, jipslashtirishda, iyomon oqibatli bo`lishda, qudratli kelajagimizni qurishda bizga yangi-yangi kuch-quvvat va shijoat bag`ishlaydi».

Shu o`rinda Amir Temurga munosabat, uning tarixiy xizmatini munosib baholash va izzatini o`rniga qo`yish xususida gapirar ekanmiz, tabiiyki, quyidagi savol tug`iladi: Bu masala Prezident Islom Karimovga nima uchun kerak? Tabiiyki, shu savolni kengroq mushohada qilganda quyidagi xulosaga kelamiz.

Birinchidan, Amir Temur qadriyati mustamlakachilik yillarda ezgu shuurimizni o`chirib tashlagan milliy tuyg`ularimizni qayta tiklab, millatni millat, davlatni davlat qilish uchun, tafakkur va tushunchalarimizdagи parokandalikka barham berib, milliy zamin va milliy ruh haqqi-hurmati uchun birlashishimiz kerak. Uning beqiyos faoliyati va o`lmas merosi xalqimizning milliy tuyg`usini, buyuk va jahonshumul an`analariga voris ekanligini chuqr anglashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, xalqimizning milliy g`ururini, milliy ongini yuksaltirish uchun qariyb unutilgan tariximizni qayta tiklash lozim. Amir Temur esa shu ko`hna tarixning buyuk cho`qqisidir.

Uchinchidan, farzandlarimizni, kelgusi avlodni ulug` ajdodlarimiz nomi va merosi bilan faxlanishga o`rgatish, ularni ana shu buyuk an`analarning munosib davomchilari qilib tarbiyalash, milliy g`ururini yuksaltirish uchun kerak. Shu ma`noda sohibqironning «Aziz avlodlar, sahabalar maqbaralarini, qutlug` qadamjolarni ziyorat etmoqni ham qarz,

ham farz deb bilur edim», degan gaplari bugungi kunda yurtimizda ulug` ajdodlarga olimu-fozil bobolarimizga munosabatimizning tarixiy uyg` unligini ko`rsatib turibdi.

To`rtinchidan, Amir Temur qadriyati bizga demokratik huquqiy, qudratl O`zbekiston davlatini barpo etish uchun, «O`zbekiston - kelajagi buyuk davlat» degan g`oyani ro`yobga chiqarish uchun kerak. Yangi jamiyat, yangi hayot, yangi tafakkur, qolaversa, butun davlatchilik asoslarini qayta tiklanayotgan bir paytda Amir Temur o`zbek xalqiga tog`day tayanch bo`lib xizmat qiladi, uning oljanob ishlariga beqiyos safarbarlik ruhi baxsh etadi.

Beshinchidan, bu benazir qadriyat mamlakatimizning jahon hamjamiyatidan munosib o`rin egallashi, kelgusi avlodga ozod va obod Vatan qoldirish uchun kerak. Darhaqiqat, hazrati Temur: «Qudratimizga shak-shubhangiz bo`lsa, biz barpo etgan inshootlarga boqing», degan edi. Bugun esa, o`tish davrining eng qiyin, ziddiyatli va murakkab bir paytida O`zbekiston ulkan qurilish maydoniga aylanganini ulug` bobomiz boshlagan an`analarning davomi, ezgu orzularning ro`yobi deyish mumkin. Keyingi yillarda yuzlab yangi binolar, zavod va fabrikalar, yo`llar va ko`priklar, hammom va choyxonalar, shifoxona va oshxonalar, ko`rkam maishiy xizmat uylari, milliy shakl va mazmunga ega bozorlar qurilganini bunga misol qilib ko`rsatish mumkin.

Eng avvalo, sohibqironning «Barcha ishlarimning to`qqiz foizini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir qismini esa qilich bilan bajo keltirdim», degan dono o`gitlari Prezident Islom Karimovning dunyo muammolarini va ichki masalalarni hamjihatlik bilan hal etish tarafdoi sifatida amalga oshirayotgan faoliyatida o`z ifodasini topmoqda. Ular o`rtasida o`zaro uyg`unlik bor. Jumladan, Prezidentimizning xalqaro masalalarni hal etishda «tomonlarning bir-biriga yon berish va murosa yo`li bilan bir-biriga yaqinlashuvi, har bir mamlakat hududiy yaxlitligining saqlanishi, barcha manfaatdor tomonlarning muzokara jarayonida ishtirok etishi, qay shaklda bo`lmasin, tashqaridan ta`sir o`tkazish va aralashuvga yo`l qo`ymaslik» tamoyillari Amir Temurning mashvaratu kengash vositasida siyosat yuritishni eslatadi.

Prezidentimizning mamlakat parlamenti, Vazirlar Mahkamasi yig`ilishlari, viloyat kengashlari sessiyalarida ishtirok etishi, mamlakat hayotining eng muhim dolzarb masalalari yuzasidan aniq fikr almashuvi demokratianing yangi shakldagi ko`rinishidir.

Amir Temurning: «Chaqaloqlarni yig`latmangiz, bolalarga ozor

bermangiz - bu gunohi azim erur. Bunday gunohni Alloh xush ko`rmagay», degan gaplari Prezident Islom Karimovning onalar va bolalarga g`amxo`rligi hamda 2010 yilni «Barkamol avlod yili» deb e`lon qilingani bejiz emas, ularga tibbiyot xizmati ko`satish va ijtimoiy muhofaza qilish hamda rivojlantirish borasida amalga oshirayotgan tadbirlari, xalq ta`limi va bolalar tarbiyasini isloh qilish hamda xotin-qizlar hayotini yaxshilash borasida olib borayotgan ishlari sohibqiron davlat shajarasini, Amir Temur ma`naviyatini davom etayotganidan dalolat beradi.

Ulug` bobokalonimizning birgina «Kuch -adolatda», degan shiorlari bugun O`zbekistonda yangi davlat qurilishiga asos qilib olindi. Huquqiy demokratik, adolatli davlatni barpo etish, insonparvar fuqarolik jamiyatini shakllantirish tamoyillari avvalo, Amir Temur mamlakatdorlik maktabining ilg`or jahoniy tajribalar bilan uyg`unlashgan mahsulidir.

Sohibqironning «Davlat, saltanat uch narsa bilan: mulk, xazina va lashkar bilan tikdir», degan fikrlari davomini Prezident Islom Karimovning davlat suvereniteti, uning hududiy yaxlitligi, milliy xavfsizlik, xazinaning baquvvatligi va qurolli kuchlarning jangovarlik holatiga alohida e'tibor berayotganida ko'rishimiz mumkin. Bu mamlakatimizda harbiy akademianing tashkil etilishi, milliy xavfsizlik, harbiy doktrinaning ishlab chiqilishi, qolaversa, mamlakat xazinasini muntazam to`ldirib borish borasidagi izchil va oqilona faoliyatida ham o`z aksini topmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, bugungi o`zbek milliy davlatchiligi, tub islohotlar jarayoni Amir Temur davlatchiligi shajarasining uzviy va mantiqiy davomi deyish mumkin.

JADID TEATRI TARIXIDAN

*T.Q.Qozoqov,
milliy g`oya,
ma`naviyat va huquq
asoslari kafedrasi
katta o`qituvchisi, t.f.n.*

Jadidlar ma`rifatchilik faoliyatining yana muhim bir tarmog`i - teatr san`ati edi. XX asrning 10-yillari Turkiston madaniyati tarixiga yangi o`zbek milliy teatrining ham vujudga kelish davri bo`lib kiradi. Millatni ma`rifat nuri bilan uyg`otib, ozodlik va taraqqiyot tantanasini orzulagan jadid ziyolilari, teatrni o`z maqsadlari yo`lidagi kuchli omillardan biri deb tushundilar. Millatning najotini ma`rifatda ko`rgan jadid taraqqiyparvarlari o`z qarashlarining keng miqyos kasb etishida teatrning benazir ahamiyatini tobora chuqurroq his etib bordilar. Qolaversa, spektakl namoyishlaridan tushadigan mablag` joylarda moddiy qiyinchilikdan qiynalib va yopilib qolayotgan «kusuli jadid» maktablarini kerakli o`quv anjomlari bilan ta`minlash uchun ham zarur edi.

Joylardagi sahna ishlarining eng oddiy tafsilotlaridan tortib to tashkiliy, ijodiy muammolarigacha «Sadoyi Farg`ona» gazetasining sahifalarida yoritib borildi.

Turkiston teatr san`atining to`ng`ich sahna asari Mahmudxo`ja Behbudiyning «Padarkush» dramasi edi. Bu asar Samarqand, Toshkent va boshqa shaharlarda ijro etilgach, 1914 yilning fevral oyi oxirlarida muallif boshliq samarqandlik havaskorlar va mahalliy yoshlar hamkorligida Qo`qonda ham sahnaga qo`yiladi.

Teatr orqali ma`rifat tarqatish g`oyasiga e`tibor qaratib, Andijon jadidlari ham 1914 yilning 6 iyunida «Padarkush»ni sahnaga qo`ydilar. Asar muvaffaqiyat bilan ijro etildi. Teatr dan so`ng, taraqqiyparvar yoshlar A.Avloniyning «O`qusun yoshlarimiz» she`rini o`qib, tomoshabinlarning olqishini olganlar. Teatr tomoshasidan tushgan bir yarim ming so`m mablag`ning 20 foizini shaharda quriladigan qizlar gimnaziysi hisobiga o`tkazilgan.

Ozarbayjonlik aktyor va rejissyor Aliasqar Asqarov boshchiligidida 1914 yilning 7 iyulida Namangan shahri yoshlari ijrosi bilan teatr o`ynaldi. Bu haqida «Sadoyi Turkiston» gazetasida ma`lum qilinishicha, sahna ko`rinishi nihoyatda ta`sirli chiqqan, hatto undan ruhlangan tomoshabinlar teatr dan so`ng ijodiy jamoaga moddiy yordam

ko'rsatganlar. Aytib o'tish lozimki ushbu davrda teatr sohasi Toshkentda anchagina tez rivojlanayotgan edi. «Sadoyi Turkiston» ning moddiy jihatdan ta'minlash maqsadida gazeta qoshida sayyor teatr truppasi tuziladi. Mazkur guruh 1915 yilning yanvar' oyida Farg'ona viloyatiga safar uyuşdırıb, shu erlik jadidlar bilan hamkorlikda teatr va adabiyot kechaları tashkil qilishni o'z rejalariga kiritadilar. Bundan ko'zlangan maqsad «millatning umumiy darsxonasi bo'lg'on» milliy matbuotning ravnaqi uchun xolis xizmat qilish edi. Farg'ona safar qilgan guruh tarkibida A. Avloniy, Abdulla qori Erg'oziev, Boyazidskiy, N.Xo'jaev, Qudratulloh Ahmatullaev, Qudratulloh Yunusovlar bo'lganlar.

Ma'rifatparvarlikning bu sohasi vodiyya keng quloch yoza boshladi. Farg'ona vodiyining ko'pgina shaharlarida jadidlar tashabbusi bilan mahalliy havaskor yoshlari ijrosida teatr tomoshalari qo'yiladi. Jumladan, «Sadoyi Farg'ona» gazetasida xabar berilishicha, 1915 yil 27 aprel kuni Toshxo'ja eshon Ashurhoji o'g'li tashkilotchiligidagi Namangan shahri mahalliy yoshlari ijrosida teatr tomoshalari ko'rsatilgan. Sahnada ijrochilar o'z rollarini mahorat bilan ijro etib, tomosha so'nggida esa yoshlar milliy ruhdagi she'rlarni jo'r bo'lib aytganlar.

YOSHLARDA MILLIY G'URUR VA VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH

*A. Bo'stonov,
NVPKQTCMOI ijtimoiy fanlar va ma'naviyat
asoslari kafedrasi mudiri.*

*B.Abdurahmonova,
NVPKQTCMOI ijtimoiy fanlar va ma'naviyat
asoslari kafedrasi katta o'qituvchisi.*

Yoshlarimiz ongi va qalbida milliy g'urur, vatanga muhabbat tuyg'ularini singdirish, ularni komil insonlar qilib tarbiyalashning muhim omili va asosiy shartidir.

Milliy g'urur tuyg'usi insonning o'zini o'zi anglashiga yordam beradi. Ajdodlar qoldirgan me'rosdan, o'z xalqining jahon taraqqiyotiga, madaniyatiga qo'shgan hissasidan faxrlanish hissini ifodalaydi. Milliy g'urur quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: O'z millatining obro'-

e'tibori, yutuqlaridan faxrlanish; millatning muammolariga befarq bo`lmaslik; uning moddiy va ma`naviy boyliklarini asrab avaylash; xalq urf-odatlari va an`analarini, qadryatlarini hurmat qilish va ularni boyitish; o`z millatiga mehr-muhabbati va sadoqatini amalda namoyon etish.

Xalqlar tarixida shunday davrlar bo`lganki, unda millatchilik, shovinistik, xatto fashizm g`oyalari hukumronlik qilgan. Bunday davrlarda milliy g`urur maqtanchoqlik, boshqa millatlarni pastga urish, o`z millatining boshqa millatlarga nisbatan ustunligini targ`ib etish kabi illatlarda namoyon bo`ladi.

Sog`lom milliy g`urur o`zga millatga mansub kishilarga ham hurmat ehtirom ko`rsatishni taqazo etadi. Bunday tuyg`uga ega ma`naviy etuk kishi milliylikni millatchilikdan, xaqiqiy milliy g`ururni millatparastlikdan farqlay oladi, boshqa millat vakillarining izzat nafsi va g`ururini kamsitmaydi. Mustabid sho`ro tuzumi davrida milliy g`ururni ifodalash millatchiilk bilan tenglashtirilardi, ko`pgina millatlarning milliy g`ururi toptaldi va kamsitildi.

Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimovning “Biz hech kimdan kam emasmiz va kam bo`lmaymiz” degan yoki buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temurning “Bizkim mulki Turon – amiri Turkistonmiz. Bizkim, millatlarning eng buyugi, Turkning bosh bo`g`inimiz” degan gaplariga e`tibor bering. Ular millatning, xalqning eng jonkuyar farzandlari tomonidan chin dildan, toza iftixor tuyg`usi bilan aytilgan hikmatli chaqiriqlardir. Bu gaplar shunchaki ko`ngilni ko`tarish uchun aytilgan emas. Amir Temur o`z davrida ona yurtini dushmanlar zulmidan xalos etib, dunyoda eng qudratli davlatga asos soldi va yuqorida aytgan gaplarini isbotladi.

Mustaqillik kishilar milliy g`ururini oshirib uni xalq vatan, ajdodlar xotirasi oldidagi mas`uliyatini his qilishdek mazmun bilan boyitmoqda. Bunday sharoitda milliy mustaqilligimizdan faxrlanish, mamlakatimizda ozod va obod Vatan, farovon va erkin hayot qurish yo`lida faol mehnat qilish, jahon xalqlarining yutuqlari, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish milliy g`ururni oshiradigan omillardir. Bu esa o`z navbatida yurdoshlarimizning kuchi, salohiyati, buniyodkorlik faoliyatini ko`p jihatdan belgilaydi, ularda sog`lom milliy g`urur tuyg`usini shakllantirish uchun tinmay izlanishga safarbar etadi.

Komil insonning muhim fazilati vatanparvarlikdir. Bugun bitta haqiqatni tushunib etish zarur – inson o`z Vatanidan tashqrada baxtli

bo`lilmaydi. Uni olis yurtda molu dunyoga ko`mib tashlasa ham, baribir Vatan sog`inchi qalbida armon bo`lib qolaveradi. Ota-onani tanlash imkoni berilmaganidek, hech kimga Vatanni tanlash imkoni ham berilmaydi. Uni Yaratganning o`zi ato etadi. Bu ulug` ne`matni asrabavaylash, uni himoya qilish esa komil insonning muqaddas burchidir.

Vatan kishilarning yashab turgan, ularning avlod ajdodlari tug`ilib o`sgan joyi, hududi, mamlakati. Vatan insonning ruhiyati, turmush tarzi, ongi va tafakkuri, o`tmishi, buguni va kelajagi mujassam bo`lgan tushunchadir. Vatan inson tug`ilib o`sgan uy ostonasidan boshlanadi.

Vatanparvarlik - bu vatanning ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo`lida fidoyilik ko`rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuchg`ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatini anglatadigan tushuncha. Hozirgi paytda bolalarda vatanparvarlik tuyg`usini kamol toptirish, ularni vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Inson o`z yurtini qanday bo`lsa shundayligicha sevishi, uning rivoji uchun bor imkoniyatlарини ishga solishi lozim.

Vatanparvarlik insonlarda uch bosqichda namoyon bo`ladi. 1) bilish - Vatan tushunchasiga xos qadriyatlarни egallash: 2) e`tiqodi – mazkur qadriyatlar to`g`risida olgan bilimlarini e`tiqodga aylantirish: 3) harakat - bu e`tiqodni amaliy ishlar orqali namoyon etish. Yurtboshimiz ta`kidlaganidek, “Barchamizga ma`lumki, inson o`zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida vatanga muhabbat tuyg`usi ildiz otib, ulg`aya boradi. Bu ildiz qancha teran bo`lsa, tug`ilib o`sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo`ladi. Albatta, dunyoda mamlakatlar ko`p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O`zbekistonimiz yakkayu yagona. Bu go`zal yurt, bu muqaddas zamin faqat bizga atalgan.... Tarix xaqiqati shuni ko`rsatadiki, tomirida milliy g`urur, Vatan ishqijo`sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo`ladi. Biz shunday ma`naviy muhit yaratishimiz kerakki, yurtimizning har bir burchagida, barcha shahar va qishloqlarimiz qiyofasida Vatandan faxrlanish hissi ko`zimizni, qalbimizni yashnatib tursin. Bu xaqda gapirar ekanmiz, ayni vaqtida muhim bir masalaga alohida e`tibor qaratishimiz lozim. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson o`zini eng avvalo O`zbekiston fuqarosi deb, shundan keyingina muayyan bir hudud vakili, aytaylik xorazmlik, samarqandlik yoki Farg`ona vodiysi farzandi deb his qilishi lozim.” (“Yuksak ma`naviyat engilmas kuch,” 90-91 bet.)

Vatanparvarlik O`zbekistonni rivojlantirishning eng asosiy omillaridan biri sanaladi. Bu tuyg`uni O`zbekistonda yashayotgan har bir yoshning har bir fuqaroning ongiga singdirmasdan turib, mustaqil yurtimizni taraqqiy etgan davlatlar darajasiga ko`tarish mumkin emas. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun ta`lim tizimining barcha bo`g`imlarida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizning xalqaro miqyosda obro`-e`tibori va mavqeい ortib borayotganligi – bu mustaqillik yillarida barcha soxalarda amalga oshirilayotgan islohotlar va bунyodkorlik ishlarining natijasidir.

TEMURIYLAR DAVRI MA`NAVİYATI

*B.Ibrahimov,
milliy g`oya, ma`naviyat
va huquq asoslari
kafedrasi o`qituvchisi.*

Davrga ta`sir etgan omillar yurtimiz tarixidagi zarhal harflar bilan bitilgan ulkan xazinadir. Mamlakatimizning dunyoga mashhur bo`lishida, insonlar tarbiyasida bu davr o`z rolini bajarmoqda va mustaqilligimizni mustahkamlashda, xalqimizning milliy g`ururini shakllantirishda xizmat qilmoqda. Har bir davrning moddiy va ma`naviy taraqqiyotga ta`sir etuvchi o`z omillari bo`ladi. Temuriylar davri ma`naviyatining yuksalishiga ta`sir etgan omillar - IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda ro`y bergan o`zgarishlar, buyuk Uyg`onish davri (Sharq Renessansi) kashfiyotlari, ilm-fan sohasidagi katta o`zgarishlar, buyuk allomalar Ibn Sino, Forobiy, Farg`oniy, Beruniy, Buxoriy, Bahouddin Naqshband va boshqalarning asarlari, keyingi asrlardagi voqealardir. Mutaxassis olimlarning fikrlariga qaraganda, mashhur shayx Bahouddin Naqshband tariqati Amir Temur davri masfurasi asosini tashkil etgan va u yuksak e`tibor topganligi tasodifiy emas edi. «Diling Allohma, qo`ling - mehnatda bo`lsin», - degan buyuk hikmat Amir Temur dunyoqarashiga mos edi. Uzoq cho`zilgan vayronagarchilik, mislsiz urushlar bu o`lkada yagona va qudratli davlat barpo etilishini hamda mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o`rnatalishini tarixiy zaruratga aylantirgan edi.

Avvalo, shuni aytish joizki, Chig`atoy avlodidan bo`lgan Tarmashirinxon (1326-1334) o`ldirilgandan keyin Movarounnahrda beqarorlik kuchaydi. Lekin chig`atoylarning birontasining ham kuchayib borayotgan feudal tarqoqlikka barham berishga kuchi etmadi. Masalan, Kesh viloyatida Hoji Barlos o`zini hokim deb e`lon qildi. Xo`jand va unga qarashli erlarda amir Boyazid Jaloir mustaqillik e`lon qildi. Bir-birlari bilan talonchilik urushlari boshlanib ketdi. Mo`g`uliston xoni Tug`luq Temurxon (1348-1363) bu parokandalikdan foydalanib, 1360-yil fevralida sanoqsiz lashkar bilan Movarounnahrga bostirib kirdi. Sayram mo`g`ulga qarshilik ko`rsatmay taslim bo`ldi. Sirdaryoning o`ng va so`l tomonlari ham shu zaylda egallandi.

O`zini hokim, xon deb atagan boshliqlar ham qochib keta boshladi yoki mo`g`ul qo`sishlariga qo`shildi. Lekin xalqqa qiyin bo`ldi. Mo`g`ullar 1369-yilgacha Movarounnahrda xo`jayinlik qilishdi. Urushlar, to`qnashuvlar hammaning tinkasini quritdi. Vatan ozodligi va mustaqilligi yo`lida jonini tikkan yolg`iz Amir Temur (1336-1405) bo`ldi. U markazlashgan mustaqil davlatga asos soldi. Har qanday davlat o`z faoliyatida ma`lum ijtimoiy guruhning maqsad-manfaatlarini himoya qiladi. Masalan, quldorlik davlati qul egalarining, feudal davlati yirik ersuv hamda mulk egalarining manfaatini himoya qiladi va hokazo. Temuriylar davlati ham mulkdorlar hukmron bo`lgan davlat edi.

Amir Temur ko`p yillar davom etgan feudal tarqoqlik va urushlar oqibatida vayron bo`lgan xalq xo`jaligini tiklash, shaharlarni qayta qurish va mamlakatni obod qilishda zo`r tashabbus va jonbozlik ko`rsatdi. Masalan, Samarqand va Banokat shaharlari 1218-1219-yillarda mo`g`ullar tarafidan tamoman vayron etilgan edi. Buxoro, Nasaf (Qarshi) va boshqa shaharlar ham nochor ahvolga tushib qolgan edi. Shaharlarni tiklamasdan, obod qilmasdan turib mamlakatda hunarmandchilik va savdo-sotiqni rivojlantirib bo`lmas edi. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelishi bilanoq shaharlarni tiklash va obodonlashtirish ishiga astoydil kirishdi. Masalan, 1371-1372-yillarda poytaxt Samarqandning buzilib ketgan hisori (qal`a) va uzunligi 70 chaqirim atrofida bo`lgan devorini tiklatdi. O`shanda Shahriston (tashqi shahar) va uning 6 darvozasi (Shayxzoda, Ohanin, Feruza, So`zangaron, Korizgoh, Chorsu), 4 qavatli ikki ulkan saroy - Ko`ksaroy va Bo`stonsaroy bunyod etildi, shahar ko`chalari va bozorlari obod qilindi. Shohi Zindada O`ljoy Turkon og`o, Tug`luq Tegin, Qutlug` Turkon og`o, Shirinbekha maqbaralari, xonaqoh va Chortoq qurildi. Temurning

rag`bati bilan Samarqand Chorsusida Tim va shaharning u boshidan bu boshigacha kesib o`tgan shoh ko`cha, Ruhobod maqbaralari ham qurildi. Sohibqiron Amir Temur o`z hayoti davomida ko`plab shaharlar, masjid-u madrasalar, maqbaralar, xonaqohlar, qal`a-qasrlar, bog`-rog`lar, sug`orish inshootlari, ravon yo`llar, ko`priklar barpo ettirdi. Ularning, ba`zilarini o`g`illari, nabiralari, saroy malikalari, islom rahnamolari nomi bilan atashga da`vat etdi. Biroq barpo etilgan inshootlarning birontasiga ham Amir Temur nomi berilmadi. Bunga uning o`zi xohish bildirmadi.

Amir Temur davrida Samarqand yangicha usulda qayta qurildi. Mo`g`ullar hukmronligi davrida, ya`ni keyingi 140 yil davomida biron-bir katta bino qurilmagan edi. Amir Temur dunyo madaniyatiga, ma`naviyatiga beqiyos hissa qo`shgan buyuk shaxsdir. Amir Temur qurdirgan Bibixonim masjidi (1404), Oqsaroy qasri (1380-1404), Dorus-saodat maqbarasi (1380) oliv imoratlardir.

Amir Temur davrida bog` yaratish ishlari beqiyos rivojlandi. Bog`lar xalqning urf-odatlari va mavjud sharoitdan kelib chiqib yaratilgan. Tadqiqotchi O`Alimov ta`kidlashicha, Sohibqiron Samarqand atrofida 12 ta bog`-saroy barpo ettirgan. Bular Bog`i Naqshijahon, Bog`i Behisht, Bog`i Shohrux, Bog`i Dilkusho, Bog`i Shamol, Bog`i Davlatobod, Bog`i Bo`ldi, Bog`i Maydon, Bog`i Baland, Bog`i Chinor, Bog`i Jahonnamo, Bog`i Navbog`laridir. Bulardan tashqari mamlakatning boshqa joylarida ham ko`plab bog`lar yaratilgan. Amir Temur jismonan baquvvatligi va yuksak ma`naviyati bilan odamlardan ajralib turadigan, har qanday odamning ruhiga ta`sir o`tkazadigan hamda o`ziga bo`ysundiradigan buyuk shaxs edi. Angliyalik tadqiqotchi Xilda Xukxemning fikricha, Amir Temur O`rta Osiyo o`tmish taraqqiyotida to`plangan siyosiy, iqtisodiy va madaniy merosni o`zida mujassamlantirgan va bu madaniy merosning davomchisi bo`lgan shaxsdir.

Amir Temurning avlodlaridan ko`pchiligi shunday obodonchilik ishlarini davom ettirdilar. Mirzo Ulug`bek qurdirgan madrasalar, Husayn Boyqaro davrida A. Navoiy boshchiligidagi obodonchilik ishlari, Boburiylar davridagi noyob qurilishlar bunga misol bo`la oladi.

Amir Temur o`z ulkan sultanatini Boshqaruvini ulus-ulus qilib idora qilgan. Movarounnahrdan boshqa barcha o`lka va mamlakatlarni u 4 ulusga bo`lib, o`g`il, nabiralariga taqsimlab bergen. Ulus hokimlari mustaqil hukmdorga o`xshardi. Ularning o`z devonlari, xazinasi va qo`shini bo`lgan. Lekin ular ulusning muhim ishlarini otasi va markaziy hukumat bilan kengashib qilishardi. Ayni mahalda Amir Temur ularning

yonida o`zining ishonchli odamlarini tutardi. Ulus hokimlari xirojning bir qismini markaziy davlat xazinasiga jo`natib turishlari shart edi va zarur bo`lib qolsa, otasi yoniga qo`shin bilan borib, xizmat qilishga majbur edi. Amir Temur markaziy davlat tizimini ixcham va ishchan qilib tuzdi, bunda songa emas, sifatga e`tibor berdi.

Davlat siyosatini belgilashda va uni amalda hayotga tatbiq etishda naqshbandiya tariqati g`oyalarini ifodalovchi «rosti-rusti» qoidasi asos qilib olindi. Sohibqiron bu g`oyani takomillashtirib, «Kuch-adolatdadir» degan mashhur hamda shu davrgacha davlatlar tajribasida ommaviy qo`llanilmagan qoidani kashf etdi. Davlat ishiga iymonli, diyonatli kishilarni o`tqazdi. Davlatni boshqarishni 4 omilga bog`liq deb bildi: 1. Saltanat. 2. Xazina. 3. Qo`shin (sipoh masalasida). 4. Raiyat (qora xalq). Saltanatni yuritishda vazirlar masalasiga e`tibor qaratildi. Vazir 4 sifatga ega bo`lishi shart bo`lgan. Bular: 1) asllik va toza nasllik; 2) aql-u farosatlilik; 3) raiyat va sipoh ahvoldan boxabarlik; 4) sabr-toqatlilik va tinchliksevarlik. Amir Temur tuzgan markaziy davlat tizimini bor-yo`g'i 7 vazir boshqargan: 1)mamlakat va raiyat vaziri (vaziri a`zam - Bosh vazir); 2) sipoh vaziri (sipohning ta`minoti va uning umumiy ahvoli); 3) moliya ishlari vaziri (egasiz -davlatga qarashli er-suv va mulk; 4) saltanat ishlarini yurituvchi vazir (kirim-chiqim masalasida); 5) adliya ishlari vaziri bo`lib qozilar devonga rahbarlik qilgan; 6) devoni mushrifga rahbarlik (voqe-a-hodisalardan xabardorlik); 7) xorijiy mamlakatlar bilan bo`ladigan munosabatlarga mutasaddilik. Amir Temur saltanatni boshqarishda kengash, mashvarat va maslahatga alohida e`tibor bergen. Kengash - bu yaqin, ishonchli odamlar bilan muhim davlat ishlari yuzasidan qilinadigan maslahat, yig`ilish. Mashvarat esa mashoyix, ulamo, fuzalo, vuzaro va boshqa arkoni davlatni to`plab qilinadigan yig`ilish. «Garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashirin bo`lsa-da, - deydi u, - aqli raso va hushyor kishilardan kengash-u tadbir istab, fikrlarini bilmoq lozim». «Davlat ishlarining 9 ulushini, - deydi u, - kengash, tadbir va mashvarat bilan, qolgan bir ulushini qilich bilan hal qildim».

Amir Temur el-yurtni o`z tasarrufiga olish va itoatda tutish uchun 12 tuzuk tuzdi:

- 1) Podshohlar bir so`zlik bo`lishi va aytgan so`ziga amal qilishi, belgilangan har bir ishini bilib qilishi lozim.
- 2) Har bir ishdaadolatpesha bo`lishi, atrofida ham shunday kishilarni tutishi zarur.

3) Ne ishniki qilar bo'lsa, o'zi hukm chiqarsin.

4) Biror ishga azmu qaror qilar ekan, qarorida qattiq tursin.

5) Oning amr-u farmoni hamma uchun vojib bo`lsin.

6) Podshohlik ishlarini biron boshqa kimsaga ishonib berib qo'ymasin.

7) Ne ish qilmoqchi bo'lsa, boshqalar bilan kengashsin, lekin maslahatning foydalisini olsin.

8) Saltanat, raiyat va Sipoh ishlarida yaxshi-yomon gaplar eshitsa, haqiqat qilib, shoshmasdan, mulohaza bilan hukm chiqarsin.

9) Sipoh va raiyat oldida o'zini haybatli va jiddiy tutsinki, hech kim bo`yin tovslash va gap qaytarishga jur'at etolmasin.

10) Raiyat, xazina, lashkar va saltanat podshohning hukmi ostidadir, u buni doimo esda tutmog'i lozim.

11) Saltanatni idora qilishda boshqani o`ziga sherik qilmaslik kerak.

12) Ahli kengashdan ogoh va hushyor bo`lmog'i lozim, chunki ko`pincha ayb axtaradilar va uni tashqariga tashiydilar.

Amir Temur tuzgan bu davlat barcha ijtimoiy tabaqalarga suyangan va qonun asosida boshqariladigan yangi bir davlat edi. «Saltanatim binosini, - deb yozadi Amir Temur, - dini islom, to`ra va tuzuk (qonun-qoida) asosida mustahkamladim. Saltanatimni boshqarishda uchragan har qanday ishni tuzukka binoan qildim».

Temurdan keyingi uning izdoshlari ham boshqaruv san`atiga amal qilib, uni takomillashtirishdi. Ayniqsa, Mirzo Ulug`bek davrida bu narsa yaqqol ko'rindi. Movarounnahrning qadimiy iqtisodiy, madaniy shuhratini tiklash yillarida uning ma`naviy salohiyati yanada kamol topdi va ijtimoiy hayotda to`laligicha namoyon bo`ldi. Shuning uchun ham mamlakat ijtimoiy hayotining barcha tomonlari, davlat idora tizimi, iqtisodiy, moliyaviy, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo, madaniyat, fan, me`morchilik, harbiy masalalar, xalqaro aloqalar, islom dini, shariat va boshqa sohalar maqsadga muvofiq rivojlandi. Amir Temur davlatni boshqarishda, uning ichki va tashqi siyosatini belgilashda, xalq ommasi, mansabdar shaxslar, olim-u fuzalolar, islom rahnamolariga munosabatda Allohga, iymonga, tafakkurga, kitobga va eng so`nggi chora sifatidagina qilichga asoslanib ish yuritdi, hukm chiqardi. Demak, Amir Temur buyuk davlat arbobi va yuksak ma`naviyatga ega bo`lgan dono hukmdor bo`lib, ham siyosiy, ham ma`naviy jihatdan juda katta tarixiy ahamiyatga egadir. Zero:

1. Amir Temur XIV asrdayoq mamlakat va mintaqalararo munosabatlarni chuqurlashtirib, yagona iqtisodiy makonga birlashtirishga harakat qildi. Integratsiyani ishlab chiqib, Buyuk Ipak yo`li o`tgan mamlakatlar o`rtasida madaniyatlar muloqotini boshlab berdi.

2. Amir Temur davlat tizimi va boshqaruvni tashkil etishda o`ziga xos maktab yaratdi, adolatli jamiyat qaror toptirishda qonun ustuvorligiga rioya qildi.

3. Amir Temur davlatchilik tamoyillarini rivojlantirdi, uni aql-idrok salohiyatiga tayanib, taktik va strategik asosda shakllantirdi;

4. Amir Temur sultanati ma`naviyat va oliv darajadagi madaniyatga yo`g`rilgan saltanat edi.

YOSHLAR MA`NAVIY MADANIYATI - JAMIYATNI YANADA

DEMOKRATIYALASHTIRISHNING

MUHIM SHARTI

*X. Mirzahmedov,
milliy g`oya, ma`naviyat
va huquq asoslari
kafedrasi o`qituvchisi.*

O`zbekiston Respublikasi o`zining qariyb 20 yillik mustaqil taraqqiyoti davomida hayotning barcha soha va tarmoqlarida olamshumul yutuqlarni qo`lga kiritdi, dunyo hamjamiyatidan munosib o`rin egallab, milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlab, tom ma`nodagi ozod va suveren mamlakatga aylandi (Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. T.: O`zbekiston, 2010. – B. 5.). O`zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatni asoslarini shakllantirish borasidagi jamiyatni demokratiyalashtirish islohotlari yoshlarning huquqiy savodxonligi, o`z bilimlarini amaliy hayotga tadbiq eta olish ko`nikma, huquq va erkinliklarini qay darajada himoya qila olishi kabi bir qator siyosiy-huquqiy omillar bilan bevosita bog`liq bo`lib qoldi. Chunki yoshlar jamiyatning ilg`or qismi sifatida demokratik jarayonlarda hal qiluvchi rol` o`ynashi kutilmoqda. Bozor

munosabatlariga asoslangan fuqarolik jamiyatida huquqiy bilim va saviya ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir etadi. Shu ma'noda yoshlarning oliy ta'lim tizimida ma'naviy-huquqiy bilim va tajribalari joylarda aholini ma'naviy madaniyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviyat ijtimoiy hayotni muhim tarkibiy qismi sifatida eng kam o'r ganilgan tushunchalardan biridir. Ma'naviyatni murakkabligi va uning ijtimoiy ta'rifi berishda olimlar "Ma'naviyat atamasi rasmiy hujjatlarda, ilmiy adabiyotlarda, matbuotda ko'p qo'llanilishiga qaramasdan, ilmiy tushuncha sifatida alohida taxlil etilmagan va ta'riflanmagan"ligini tan olishgan. Moziyda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni kattalarga nisbatan kam ahamiyatsiz edi. Shuning uchun falsafadagi kategoriylar tizimida yoshlarning jamiyat ijtimoiy yangilanishlaridagi o'rni alohida o'r ganilmagan. O'zbekistonning taraqqiyot rejalar tuzilar ekan, rivojlanishning faqat iqtisodiy jihatlariga emas, yoshlar ma'naviyati masalasiga ham alohida e'tibor berildi. Bu e'tibor faqat nazariya sohasida emas, amaliyatda ham namoyon bo'ldi. "Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish, — deb yozgan edi Prezident Islom Karimov, — O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir" (Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. -T. O'zbekiston, -t.1, 1996. -B. 80.). Mamlakatimizda ma'naviyat masalalari bo'yicha o'quv reja va dasturlar tuzilib, o'rta va oliy o'quv yurtlarida ma'naviyat fani kiritildi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuzilib, barcha viloyat, shahar va tumanlarda uning bo'limlari ochildi. 1999 yilda Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi tuzilishi ham muammoning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Shu ma'noda jamiyatni demokratiyalashtirishda yoshlarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishga oid huquqiy bazani yaratilishini davlatning yoshlarga doir izchil siyosatini muhim voqeа deb hisoblash mumkin.

Yoshlarning ma'naviyati negizida arabcha "ma'ni" so'zi, ya'ni ma'naviy so'zi ma'niga aloqadorlikni bildirib, «ma'naviyat» so'zning ko'plikdagi shaklidir. "Ma'naviyat" atamasining negizida ma'no so'zi yotishi yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faoliyatining eng katta bir sohasini to'laroq anglashga yordam beradi. Ma'no, bir tomonidan, mohiyatning shakli bo'lsa, ikkinchi tomonidan, uning o'zi so'z va jumla uchun mazmundir. «Chun garaz so'zdin erur ma'ni anga», deb yozganida

bobomiz Alisher Navoiy yoshlarning yuksak ma`naviyatini nazarda tutgan edi. Aslida o`zbek tili va adabiyoti, san`atida yoshlarning ma`naviyatiga bosh mavzu sifatida ma`no berilishi adabiyot va san`atga xosdir. «Ma`naviyat» so`zi qanchalik purma`no ekani, uning ko`p qirraliligi to`g`risida Islom Karimov shunday yozadi: «Er, oila, ota-on, bolalar, qarindosh-urug`, qo`ni-qo`shnilar, xalq, vijdon, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, erkinlik – ma`naviyatning ana shunday ma`nosi keng».

Ma`naviyat o`zining tarkibi rang-barang va boyligi bilan ajralib turadi. Bu tarkibiy qismlarning barchasini taxlil qilish uchun juda ko`p vaqt va kuch talab qilinadi. Bundan tashqari, ma`naviyat tarkibiga kiruvchi ong, tafakkur, san`at, axloq, adabiyot, din, e`tiqod kabi ko`plab tushunchalar falsafa, ruxshunoslik, etika, san`atshunoslik, estetika, adabiyotshunoslik kabi fanlarda tahlil qilingan. Shu bilan birga ma`naviyatning tarkibiy qismlarini alohida-alohida tahlil qilish bu murakkab hodisa to`g`risida to`la tasavvur bera olmaydi. Chunki har qanday butunlik alohida-alohida qismlarning mexanik jamlanmasi emas, balki u ularning o`zaro ta`sirida vujudga keladi. Ma`naviyat ham o`z tarkibiga kiruvchi ko`plab unsurlarning o`zaro ta`sirga kirishi oqibatida shakllanadi.

Ma`naviyatdagi muhim bir qatlam bilimdir. Ma`naviyat bilimlar negizida shakllanadi. Ma`no so`zning mag`zi bo`lgani kabi ilmning mag`zi bilimdir. Inson yoki jamiyatda bilim qancha ko`p bo`lsa, ma`naviy yuksalish uchun shunchalik mustahkam poydevor yaratilgan bo`ladi, ammo poydevor o`rnatish uyning bitganini bildirmaganday, bilimlar miqdori ham o`z-o`zidan yuksak ma`naviyatni bildirmaydi. Bilim — ma`naviyatning asosi, xolos.

Yoshlarning bilim olishi, ya`ni ta`lim jarayoni tarbiya bilan uyg`un olib borilishi yuksak ma`naviyatni shakllantirishdagi bosh yo`nalishdir. Ma`naviyat tarkibidagi muhim tarkibiy qismlardan yana biri axloqdir. Utom ma`noda inson bilim, aql-zakovati, kuch-quvvatini yaratuvchilik ishiga yo`naltiruvchi kuchdir. Aslida axloq faqat xulqni emas, balki tafakkur, aqliy faoliyatni tartibga solibgina qolmay, muayyan maqsadga yo`naltirib ham turadi. Kishining xulqi, faoliyati ma`lum axloqiy me`yorlardan chetga chiqishi shaxs ma`naviyatini susaytiradi. Chunki, yoshlar xulqini nafaqat axloq, urf-odat, rasm-rusum, an`analar kabi hodisalar ham boshqaradi. Ular esa axloq tarkibiga kirmaydilar. Bu

hodisalar axloq tarkibiga kirmasa ham, ma`naviyat tarkibida sezilarli o`rin tutadi.

Urf-odat, rasm-rusm, an`ana va marosimlarning ma`naviyat bilan o`zaro aloqadorligi jamiyatning taraqqiyot darajasiga mos keladigan an`ana va marosimlar ma`naviyatni boyitishga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Masalan, ilm-fan, hunar o`rganishga intilish, kattalarga xurmat singari ko`plab an`analar ma`naviyat rivojlantirgan. Ayni paytda, ortiqcha isrofgarchilik, dabdabali marosimlar millat ma`naviyatiga putur etkazish bilan birga iqtisodga ham salbiy ta`sir ko`rsatadi. Bir paytlar xalqning iqtisodiy va ma`naviy darajasiga mos bo`lgan marosimlarning ba`zilari vaqt o`tishi, iqtisodiy va ma`naviy taraqqiyot tufayli shu xalq rivojiga to`sinq bo`lib qolishi mumkin.

Yoshlar ma`naviyatining eng asosiy xususiyati ochiq tizim ekanidadir. Ma`naviyatning ming yilliklar davomida uzluksiz avloddan-avlodga o`tishi sababidir. Ma`naviyatni tashkil qiluvchi unsurlarning har biri boyib va o`zga unsurlar bilan mutanosiblikda ma`naviyatni boyitib boradi. Bu dialektik jarayon eskirgan unsurning yo`qolishi va yangi unsurlarning kirib kelishi evaziga ham ro`y beradi. Agar jahondagi biror xalq o`z ma`naviyatini boshqa xalqlar ma`naviyatiga qarshi qo`ysa, yoki ulardan ko`chirib olsa, u tanazzulga yuz tutadi. Har bir xalq ma`naviyati boshqa xalqlar ma`naviyatidan oziqlanib va ularga oziq berib boyiydi.

Ma`naviyatda milliy va umuminsoniy jihatlar o`zaro uyg`un bo`lib, ma`naviyat tarkibiga kirgan unsurlarda milliy va umuminsoniy jihatlarning uzviy bog`liqligi bilan izohlanadi. Jumladan, axloq, san`at, din singari ijtimoiy hodisalarda ham milliy, ham umuminsoniy jihatlar mavjud bo`lib, ularning mutanosibligi ma`naviyatdag`i milliylik va umuminsoniylik mutanosibligini belgilaydi. Shuning uchun ham ma`naviyatdag`i milliylik va umuminsoniylik nisbati uning tarkibidagi axloq, san`at, mafkura singari hodisalarda shu jihatlarning qanday mutanosiblikda ekaniga bogliq.

O`zbek yoshlari axloqidagi oriyat, diyonat, kattalarga xurmat, mehmondo`stlik, mehnatsevarlik kabi sifatlarga ularning ruhiyatidagi samimiylik, insof, bag`rikenglik, sharm-hayolilik jihatlari, milliy adabiyot va san`ati qo`shilib o`zbek yoshlari ma`naviyatining o`ziga xos xususiyatlarini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda yoshlarning ma`naviy madaniyati avloddan-avlodga o`tuvchi ahloq va huquq, din va siyosat, falsafa va san`at bo`lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida milliy madaniyatni tarkibiy qismini hosil qilgan.

Yangi asr boshida ijtimoiy-gumanitar fanlarda madaniyat tushunchasiga “inson huquq va erkinliklari” va “demokratiya” nuqtai nazaridan qarash yangi ilmiy an'anaga aylanib borayotganligi ham yoshlardan ma'naviy madaniyatini yangicha talqinlarini taqozo etadi. Shu ma'noda VATAN mustaqilligi milliy va shaxsiy -madaniy hayotimizning bebaho ma'naviy madaniyatni deb xulosalash mumkin².

Yoshlarning ma'naviy madaniyatni jamiyatda aholining umumiy ma'naviy madaniyatining shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yutuqlari bilan boyib, yangilanib boradigan ijtimoiy-ma'naviy hodisadir.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING YARATILISH BOSQICHLARI VA RIVOJLANISHI

*A. B. Qambarov,
Nam DU 1-kurs
stajyor-tadqiqotchisi.*

«Konstitutsiya» tushunchasi lotincha so'zdan kelib chiqqan bo'lib, o'rmatish, joriy etish ma'nosini bildiradi. Qadimgi Rim davlatida imperator tomonidan chiqarilgan alohida aktlarni shu nom bilan ataganlar. Bu aktlar boshqa aktlarga nisbatan manba bo'lib hisoblangan. Qadimgi vaqtarda «konstitutsiya» atamasi bilan huquqiy tomonidan belgilab qo'yilgan davlat tuzumini atay boshlaganlar. Shu ma'noda 13-19 asrlarda Movarounnahrda ma'lum darajada ta'sir ko'rsatib kelgan Chingizxon yozuvi va Amir Temur tuzuklari sharqona madaniyatga monand konstitutsiyaviy hujjatlar edi.

O'zbekiston Respublikasi 1991 yil 31 avgustda bo'lib o'tgan respublika Oliy Kengashi sessiyasida o'zining mustaqilligi to'g'risida qonun qabul qildi. 1992 yil 8 dekabrda mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi har tomonlama umumxalq muhokamasidan keyin O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan moddama - modda ovoz berish yo'li bilan qabul qilindi. Konstitutsiya O'zbekiston xalqlarining irodasi, ruhi, ijtimoiy ongi va madaniyatini ifodaladi, davlat mustaqilligini tantanavor ravishda e'lon qildi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilishning asosiy sabablaridan biri shundan iborat edi, O'zbekistonda ilgari amal qilib kelgan konstitutsiyalar avvalgi totalitar tuzumni himoya qilar edi. Boshqarish va xo'jalik yuritishning ma'muriy-buyruqbozlik usullarini yoqlaydigan, ishlab chiqarish vositalarini umumxalq mulki bo'lishini tan oladigan, xususiy mulk huquqini, erkin raqobatni batamom istisno etadigan, bozor iqtisodiyoti qonunlarining amal qilishini cheklab qo'yadigan qoidalar rasman mustahkamlab qo'yilgan edi. Konstitutsiya va qonunlarni qayta ko'rib chiqmasdan turib, uni yangi sharoitga moslashtirmasdan turib, O'zbekistonda demokratik huquqiy davlatni qurish mumkin emas.

O'zbekistonda davlat mustaqilligining e'lon qilinganligi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqish va qabul qilishni taqozo etgan ikkinchi sabab bo'ldi. Respublika o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, tabiiyki, ushbu juda muhim voqeani Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yishi, uning ichki va tashqi siyosati printsiplarini, inson huquqlariga, davlat suverenitetiga sodiqligini aniq ifodalamog'i lozim edi. Konstitutsiya o'zbek davlatchiligi rivojlanishidagi tarixiy tajribani inobatga olishi, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari ustunligiga tayanishi, bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatni bunyod etishi kerak edi. Ushbu sabablardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining 1992 yilgi Konstitutsiyasi o'zida O'zbekistonning yangi sharoiti va uning maqsadlaridan kelib chiqqan vazifalarni aks ettiradi. Bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining xususiyatlaridan ko'rinish turadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, uning mohiyati - xalq manfaatini ifoda etuvchi demokratik davlat deb e'lon qilinganligi, yangi vazifalari - ijtimoiy ta'minlangan bozor iqtisodiyotiga o'tish, ko'p partiyaviyilik, fikrlar va mulk shakllarining xilma-xilligi kabi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar respublika uchun shu sharoitga mos yangi Konstitutsiyani qabul qilishni taqozo etdi.

Yangi qabul qilinadigan Konstitutsiyada mustaqil O'zbekistonning tabiatni, ichki va tashqi siyosatining printsiplari, inson huquqlariga, davlat suverenitetiga, demokratiyaning va ijtimoiy adolatning oliy maqsadlariga sodiqligi mustahkamlab qo'yilmog'i lozim edi.

Respublika Konstitutsiyasining loyihasini tayyorlash, muhokama qilish va uni qabul qilishga Respublika Prezidenti I.A.Karimov

raisligidagi Konstitutsiyaviya komissiya rahbarlik qildi. Konstitutsiyaviy komissiyaning ishchi guruhi Konstitutsiya loyihasini tayyorlab, 1992 yil 26 sentyabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qildi. Loyiha ikki yarim oy mobaynida matbuotda, boshqa ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar, tumanlar faollarining yig`ilishlarida, ming- minglab mehnat jamoalarida chuqur va atroficha muhokama qilindi. Bu muhokama davomida loyihani yaxshilashga doir ko`p taklif va mulohazalar bildirildi. Tushgan taklif va mulohazalar o`rganilib, 60 dan ortiq moddaga aniqlik va tuzatishlar kiritildi. Loyihaning yangilangan varianti 1992 yil 21 noyabrda yana bir bor matbuotda e'lon qilindi. Loyihaning bu variantiga ham yangi istaklar bildirilgan xatlar keldi. Konstitutsiyaga hammasi bo`lib, 80 ga yaqin o`zgartish, qo'shimcha va aniqliklar kiritildi. 1992 yil 8 dekabrda O`zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

SITSERON NOTIQLIGI VA UNING AHAMIYATI

*B.Ibrohimov,
milliy g`oya, ma`naviyat
va huquq asoslari
kafedrasi o`qituvchisi.*

Sitseronning ijtimoiy va notiqlik faoliyati Sulla hukmronligi davriga to`g`ri keladi. Sulla monarxiya despotizmi bilan aristokratik respublikani mustahkamlashga uringan o`ta reaktsion hukmronlikka ega edi.

Sitseron o`z bilimini chuqurlashtirish uchun va boshqa sabablarga ko`ra Afinaga safar qiladi. U erda yirik ustozlardan notiqlik san`ati bo'yicha ta`lim oladi.

Sitseron asosan, sud notiqligida shuhrat qozongan so`z san`atkorlaridan biridir. U miloddan oldingi 63 yilda oliy lavozimga — konsullikka saylanadi. Bu lavozimda turib u aristokratlarni himoya qiladi va demokratik guruhlarning ashaddiy dushmaniga aylanadi.

Italiyadagi demokratik kuchlarning rahbari Katilina ismli kishi edi. U va uning fikrdoshlari qashshoq dehqonlarning va jamiatdag`i barcha mazlumlarning manfaatini ko`zlardilar. Katilina Sitseron bilan bir vaqtida konsullik lavozimi uchun nomzod qilib ko`rsatiladi. Ammo bu kurashda

Katilina mag'lubiyatga uchraydiki, mazkur kurash jahon tarixida «Katilina voqeasi» deb nom olgan. Bu voqea qisman Sitseronning «Lutsiy Sergiy Katilinaga qarshi so'z» deb atalgan nutqlari tekslida o'z aksini topgan.

Sitseron o'z nutqlarida Katilinani johil, g'araz niyatli, yirtqich, fitnachi, qonxo'r deb, u rahbarlik qilgan demokratik kuchlarni ham Italiya xalqining yovuz dushmani, Rim davlatining ofati deb bo'hton qiladi. Katilina esa, unga qarshi, demokratik kuchlarning qo'zg'olonini tashkil qiladi, ammo engiladi. Ana shu qo'zg'oloni bostirganligi, demokratik kuchlarni engganligi uchun senat Sitseronga «Yurtning otasi» degan yuksak unvon beradi.

Sitseron miloddan oldingi 43 yilda 6 dekabrdan 7 dekabrga o'tar kechasi Antoniy kishilarini tomonidan o'ldiriladi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Sitserondan quyidagi asarlar qolgan;

1. Jami 150 nutq. Shundan 58 tasi bizgacha etib kelgan.
2. Falsafa mavzularida yozilgan 12 ta asar
3. Notiqlik tarixi va nazariyasiga oid 7 ta risola.
4. Jami 800 tacha maktub.

Sitseronning notiqlik san'atiga bag'ishlangan asarlari orasida uch risola —«Notiq haqida», «Brut yoki mashhur notiqlar haqida» va «Notiq» nomli asarlari juda katta tarixiy, nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki, bu risolalarda notiqlik san'ati deyarli barcha aspektlarda taxlil etilgan.

«Notiq haqida» nomli risola miloddan oldingi 55 yilda yozilgan. Bu asar uch qismdan iborat bo'lib, «Birinchi kitob», «Ikkinchi kitob», «Uchinchi kitob» deb nomlangan. Sitseron mazkur asarda notiqlik san'atining tarixiy, nazariy, talqiniy asoslarini har tomonlama muhokama etadi. «Birinchi kitobida notiqlik sant'atining predmeti, faylasuflar va notiqlarning o'zaro munosabati, notiqlar kamoloti, iste'dod, yuridik asoslar kabi muhim masalalar bayon qilingan. Shu risolaning ikkinchi qismi, ya'ni «Ikkinchi kitob»da nutqlarning turlanishi, notiqlikning uch imkoniyati: topog'onlik va humor, nutq kompozitsiyasi kabi masalalar muhokama etiladi. «Uchinchi kitob» nutqning birligi va tarmoqlanishi, go'zalligi, nutq va so'zlar munosabati, talqin va nutq figuralari kabi masalalar tahliliga bag'ishlangan.

Sitseronning «Brut yoki mashhur notiqlar haqida» nomli risolasi shu san'atning tarixiga, «Notiq» nomli risolasi esa notiqlik mahorati masalalariga bag'ishlangan. Bu asarlarda, Sitseron faqat bilimdon notiq

tarzidagina emas, balki buyuk nazariyotchi sifatida ham namoyon bo`ladi.

Sitseron fikricha «har qanday notiqning asosiy maqsaditinglovchining zavqini» uyg`otib, o`ziga moyil qilishdan iborat». Buning uchun esa, zarur bo`lgan notiqlik uslublarining barcha imkoniyatlaridan foydalanish mumkin.

Sitseron notiqlik mahorati o`ziga xos xislatlarga ega. Masalan, u biror fikrni bayon etar ekan, nutqini shu fikr doirasi bilan cheklab qo`ymagan. Aksincha, uning nutqlarida fikr erkinligi hukmron bo`lgan va notiqning falsafiy, siyosiy, axloqiy qarashlari har doim uyg`un tarzda mujassamlashgan. Jumladan, shoir Arxiyni himoya qilganda yuridik dalillarga ko`ra adabiyot va madaniyatning ahamiyati, jamiyat tarixida shoir tutgan o`rinni bayon etish yo`li bilan o`z himoyasidagi shoirga Rim fuqarosi huquqini olib berishga intiladi.

Sitseron notiq sifatida o`z tinglovchisiga emotsiyal ta`sir etish masalasiga alohida e`tibor bergen. Shuning uchun ham uning nutqlarida balandparvoz so`z, ibora va jumlalar ko`p uchrar, nutqining umumiyo`nalishi ulug`vor uslubga moyil edi. Biroq ana shu ulug`vorlik orasida u oddiylik, maishiylilik, kulgi-mutoyiba, ritorik savollardan ham foydalanardi. Shu jihatdan qaraganda uning nutq uslubi qorishiq, umumiylashgan uslubga ham o`xshab ketardi.

Sitseron o`z nutqlarida mubolag`adan keng foydalanardi. Jumladan, Katilina haqida gapirganda, o`z raqibini o`ta ketgan yovuz qilib ko`rsatish uchun u Rimga o`n ikki tomondan o`t qo`ymoqchi edi, halol kishilarning barchasini qirib tashlamoqchi edi deb mubolag`a qilgan. Sitseron talqin paytida artistizmning barcha imkoniyatlaridan foydalangan. U zarur bo`lganda tahdid etar yoki yig`lamsirar, himoyasidagi kishining yosh qizchasi yoki o`g`ilchasi qo`lida baland ko`targan holda xo`rsinib-xo`rsinib gapirardi. Sitseron nutq matnining ravonligi, go`zalligi, ifodaliligi va musiqiyligiga alohida ahamiyat bergen. U lotin prozasida birinchi marta vazn sistemasini qo`llab, bu sohada katta yutuqlarni qo`lga kiritgan.

Sitseron o`z nutqiga juda katta tayyorgarlik ko`rgan. Shunday bir rivoyat bor, Sitseron bir kuni nutq so`zlashga tayyorlanib ulgura olmagani uchun nima qilishini bilmay turgan ekan. Xuddi shu paytda bir qul xizmatkori kirib, shu nutq so`zlanishi lozim bo`lgan majlis qoldirilganini xabar qilibdi. Sitseron quvonganidan o`sha qulni shu zahotiyoq ozod qilib yuborgan ekan. Zotan, kishi shoir bo`lib tug`iladi,

ammo notiq bo`lib etishadi, degan hikmatni olg`a surgan Sitseron chindan ham notiqlik san`atini izlanish va mehnat tashkil etishini yaxshi tushungan va shu haqiqatga ishongan.

Sitseron nutq kompozitsiyasiga alohida e`tibor bergan. Ayniqsa nutqning kishilar ongiga ta`sir etuvchi qismi bo`lgan aktsitepini-argumentatsiya, ya`ni mantiqiy isbotlarga va kishilarning hissiyotiga ta`sir etuvchi, hissiyotga ta`sir etuvchi qismiga alohida e`tibor qilgan.

Sitseron nutq jarayonida uch muhim omilga alohida e`tibor berishni qayta-qayta ta`kidlagan. Bu - nutqning kirish qismi, xotimasi va repetitsiyasidir.

Sitseron nutq kompozitsiyasining nazariyasi ham ishlab chiqqan. Uningcha, nutq kompozitsion jihatdan quyidagi qismlardan iborat bo`lishi kerak:

1. Nutqning kirish qismi.
2. Ishning mohiyatini ochish.
3. Keyingi qismlarning rejasi.
4. Asosiy qism (dalillar).

5. Oxirgi qism, ya`ni nutq davomidagi asosiy masalalarni qisqa-qisqa eslatib o`tish va yakun yasash.

6. Xulosa.

Sitseronning faqat nutq kompozitsiyasi emas, balki nutq davrlari ham ancha o`ziga xos xususiyatga ega. Shuning uchun ham notiqlik san`ati tarixida «Sitseron nutqiy davrlari» degan tushuncha ham mavjud. Bu davriy o`ziga xoslik esa o`zining tarkiban kengligi, ravonligi, musiqiyligi, ritmik yaxlitligi kabi bir qancha xususiyatlardan iboratki, buning aniq namunalarini Sitseronning hozirgi kunda xam nashr etilgan nutq matnlaridan topish mumkin.

Sitseronning hayoti, ijodi, falsafiy va adabiy qarashlari, notiqlik mahorati va bu sohadagi ta`limoti hozirgi kunda ham amaliy va nazariy ahamiyatga molikdir.

“TARAQQIY” - TO’NG’ICH MILLIY NASHRIMIZ

*A.T. Jo`raev,
Nam DU
Ijtimoiy-iqtisodiy
fakulteti o'qituvchisi.*

XX asr boshidagi o’zbek milliy matbuoti tarixida “Taraqqiy” (1906) gazetasi alohida o’rinni egallaydi. Bu gazeta ozod, ma`rifatparvarlik g’oyalarini ilgari surdi, jadidlarning qarashlariga asoslanib, Turkistonda istiqlolning ma`naviy zamini masalasiga katta e’tibor berdi, ilm-ma`rifatni ana shu istiqlol ma`naviy zamini deb bildi va shu masalani hamisha diqqat markazida tutdi, o’zbek millatining jaholatdan qutilishi, taraqqiy topishi haqida qizg’in bahs yuritdi, demokratik tartiblar uchun kurashdi. “Bu gazeta, - deb yozgan edi atoqli o’zbek ma`rifatparvari Abdulla Avloniy, - elning sevib o’qiy turgan bir gazetasi bo’la oldi. Bu gazeta o’sha zamon muslimon gazetalari ichida eng so’li bo’lib, hukumatga va uning ma’muriyatiga qarshi o’t ochdi. Bu gazeta erli yosh yozuvchilarga sahifasidan keng o’rin berdi” (Abdulla Avloniy. Burung’i o’zbek vaqtli matbuotining tarixi // Turkiston. 1989. 18 iyul.).

“Taraqqiy” ning adabiyotlardagi talqini masalasi hususida ham fikr bildirmoqlik mustaqil mulohazalar uchun foydadan holi emas. Turkistonda nashr etilgan ilk gazeta “Taraqqiy” haqida shu paytgacha bir qator tadqiqotlar yaratildi.

“Turkistonda matbuotning na holda, na darajada o’ldig’ini imkon boricha ko’rsatarmiz”, deb yozgan ilk matbuot tadqiqotchisi Cho’lpondir: “Taraqqiy — taraqqiyparvar bir gazeta bo’lib, muharriri ichki Rusiya totorlaridan Ismoil Obidiy yo’ldosh edi. Oktyabr inqilobindan so’ngra bu kishi so’l susiyolist revolyutsioner firqasi vakili o’laroq doxiliya ko’misori mansabinda bo’lindi. Ikki oy qadar davom etgandan so’ngra xukumat tarafindan bekitildi” (Abduazizova N.A. Milliy jurnalistika tarixi (Genezis va evolyutsiya). Birinchi jild, - T.:Sharq,2008.-B.96.).

Bu mavzuda, shuningdek, Abdulla Avloniyning “Burung’i o’zbek vaqtli matbuotining tarixi” axborotnomasini ham dalil sifatida ko’rsatish mumkin. Unda muallif gazeta haqida qisqa va aniq fikrlarni bayon etgan: “Taraqqiy” gazetasi Ivan Geyerning to’xtalg’on gazetasi o’rniga chiqqan, desa mumkindir. Uning obunachilarining qolg’ a(n)

haqiga “Taraqqiy” gazetasi yuborildi. Bu gazeta tez fursatda shunday shuhrat qozondiki, hatto gazeta muharriri bo`lg’on Ismoil Obidiyga “Taraqqiy” ismi (laqabi) berildi. Hozirgacha xalq Ismoil Obidiyning ismini Taraqqiy deb yuritalur (Abdulla Avloniy. Burung’i o’zbek vaqtli matbuotining tarixi //Turkiston. 1989. 18 iyul.).

“Taraqqiy” gazetasi haqida Ziyo Saidning “Jadidlar va ularning matbuotiga bir qarash” maqolasida xuddi shunday ma’lumotlarni uchratish mumkin.

Ziyo Saidning “O’zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870—1927)” asarida u “Qora guruh ulamolari bilan qattiq tortishdi, ularni xalq orasida obro’larini tushirishga harakat qildi. Ora-sira hukumatga ham tegib turdi. Mazkur gunohlari uchun 20-nomeriga etganda hukumat tomonidan musodara etilib, muharriri qamoqqa olindi”, deb yozgan edi.

T.Ernazarov “Turkistonda vaqtli matbuot” asarida “Taraqqiy”da boshilgan materialarning umumiyligi mazmuni, gazeta muharririning “Russkiy Turkestan” gazetasi bilan hamkorligi, rus amaldorlari, ruhoniyalar va boylarning gazetaga salbiy munosabati haqida fikrlar bildirgan.

“Taraqqiy” haqida yaratilgan tadqiqot ishlaridan yana biri Solih Qosimovning “Guliston” jurnalining 1979 yil 9-10 sonlarida e’lon qilingan “Kurash sahifalari” maqolasidir. Shuningdek, A.Jalolov va X.O’zganboevlarning “O’zbek ma’rifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida vaqtli matbuotning o’rni” kitobida va “O’zbek tili va adabiyoti” jurnalining 1986 yil 3-sonidagi “Taraqqiy” va adabiy hayot maqolasida ham “Taraqqiy” gazetasi faoliyati tahlil qilinadi. Bu tadqiqot va izlanishlarda ham vaqtli matbuotning adabiyot rivojiga qo’shgan hissasi ta’kidlanib, ijtimoiy-siyosiy xayotga matbuotning ta’siri masalalari o’z bahosini olgan. “Taraqqiy” ilk sonlaridanoq mahalliy xalq orasida erk, hurriyat, istiqlol g’oyalarini tarqatishga intildi. Gazetaning 1-sonidagi “Toshkand, 14 iyun” sarlavhali tahririyat maqolasida Rossiyada inqilobiy kurashlar, qon to’kishlar, jon fido kilishlar tufayli 17 oktyabr’ manifestiga erishilgani haqida fikr yuritilarkan, o’zbek va tatar xalqlari (umuman, musulmon qavmlari) inqilobiy harakatga faol qatnashmayotganliklari alohida ta’kidlanadi.

“Taraqqiy”ning 8 va 9-sonlarida Turkiston bol’sheviklarining namoyondasi V.Morozovning maqolasi ham boshilgan. Ammo “Taraqqiy” bol’sheviklar mafkurasidan ko’ra kengroq va boyroq

maslakni ilgari surdi. Bular uning yozishicha, quyidagilar: “muqtaziy hol va zamondir”, ya’ni zamonasining va muayyan holatning zaruriy, talab etilganlarini yozishdir. Buni gazeta shunday izohlaydi: “Gazetamiz: “Taraqqiy” nominda o’lub, bora-bora jismi ham ismig’a muvofiq o’lub millatimizni “keyin” qolmog’iga jaholati va g’aflati oliyda o’lub boshqa millatlardan kam darajada qolmog’ig’ a aslo rozi emasdirmiz. Baqadari imkon millati islomni oliy darajada o’lmog’ig’ a va millati islomdagagi tijorat, kasb-korning ortmog’iga yo’l izlab ijтиҳод qilur. Jaholat har millatni keyin qoldirib atrofig’ a qorongulik keltirmog’i xar kimga ma’lumdir. Binoan alayha gazetamizning najotimizg’ a, diniyo va oxiratda mas’ud o’lmoqimizg’ a yolg’uz ilm bobidur, demak, eng birinchi vazifasidir. Alhamdullila sam alhamdulilla aholi viloyatimizning bu kunlarda uyqularindin uyg’onub emoqg’ a g’izo, icharg’ a suv izlagandek har tarafdan oxista-oxista kelgan ovozlarga quloq solub turuvlari: oralaridan bir odamning “zamonamiz foyda va istifoda zamonidir; millat manfaatina xizmat etmak zamon ba zamon, tortkan mehnat, ko’rgan zahmatlaridan qutilaturg’ on zamon bu zamon. Din va dunyomiz uchun g’ayrat qilub ibrat oladurg’ on zamon - bu zamon. Har kim o’z hissasin olub turg’ on muddatda og’iz ochub qoladurg’ on zamon emas”, deb bergen ovozlarimizni eshitgudek ko’rinurlar” (Pidaev T., Do’stqoraev B. “Taraqqiy” gazetasi // Xalq so’zi. 1993.11 iyun’.). Mazkur parchada gazetaning asl maslagi ifoda qilingan. Unda ta’kidlanganidek, “Taraqqiy” butun o’zbek millatining jaholatdan qutilishi, taraqqiy qilishi, erki va istiqlolli uchun kurashdi. Bu maslak keyinroq jadidlar g’oyasi, harakat esa jadidchilik deb ataldi.

Xulosa o’rnida shuni alohida qayd etish joizki, sho’ro tuzumi davrida jadidchilik harakatining o’zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy va madaniy xayotidagi ahamiyati tarixiy haqiqatga zid ravishda buzib talqin qilindi. Jadidchilik harakati milliy ozodlik harakati bilan chambarchas bog’liq ijtimoiy-siyosiy hodisa ekanligi inkor etildi.

Yurtimizda qaror topgan mustaqillik tufayli biz endilikda tarixiy merosimizni haqqoniy o’rganish va baholash imkoniga erishdik. Mustaqil O’zbekiston hukumati Oliy Kengashi 1993 yilda “Taraqqiy” gazetasining 1-soni chiqqan 27 iyun’ sanasini o’zbek jurnalistlarining kasb bayrami sifatida nishonlash to’g’risida mahsus qaror qabul qildi. Bu milliy matbuotimizning xalqimiz ravnaqidagi beqiyos xizmatiga berilgan munosib bahodir.

MILLIY MATBUOTDA MADANIY MEROOSGA MUNOSABAT MASALALARINING AYRIM JIHATLARINI O'RGANILISHI

*M.Mahmudov,
milliy g`oya,
ma`naviyat va huquq
asoslari kafedrasi
o`qituvchisi.*

Bugun tariximiz haqqoniy yoritilayotgan, milliy-madaniy merosimiz qayta tiklanayotgan davrda XX asrning 20 - 30 yillarda milliy-madaniy merosga munosabat masalalarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bu davr o`zbek xalqi hayotida murakkab, qarama-qarshiliklarga boy ziddiyatl bosqich sanaladi.

XX asrning 20 - yillarda o`lkada sovet rejimi zo'rlik bilan o`rnatildi. Ijtimoiy hayotning barcha tarmoqlarini sovet hokimiyati manfaatlariga moslashtirishga harakatlar avj oldirildi. Jumladan, davriy matbuot faoliyati ham kommunistik mafkura manfaatlariga bo`ysundirildi.

Ma'lumki, davriy matbuotda nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy hayotga doir muhim axborot, statistik ma'lumotlar, balki voqeа zamondoshlarining qarashlari, turli toifa vakillarining fikrlari ham o`z aksini topgan bo`lib, bu tadqiqotchilarga voqeа ishtirokchilari hamda ularning u yoki bu voqealarga munosabatini aniqlash imkonini beradi.

XX asrning 20 - 30 yillar matbuotida madaniy merosga munosabat masalalari asosan bir tomonlama yoritib borildi. Matbuot sahifalarida deyarli kommunistik g`oya va maqsadlar uchun xizmat qiluvchi maqolalar nashr etilishiga e'tibor qaratildi.

Biroq, shunday sharoitda ham milliy ziyorilar garchi qarshiliklar bo`lishiga qaramay, matbuot sahifalarida milliy madaniyat, tarix va til sofligi borasida o`zlarining maqolalari bilan munosabatlarini bildirdilar.

O`zbek ziyorilari Abdulla Qodiriy (1894-1938), Abdurauf Fitrat (1886-1938), Abdulhamid Cho'lpon (1897-1938), Munavvar qori (1878-1931) va boshqalarning bugungi kungacha kam o`rganilgan milliy-madaniy meros mavzusiga oid ko`plab maqolalari mazkur davr matbuotida e`lon qilingan.

Mustaqillik yillariga qadar matbuot tarixiga oid haqqoniy ilmiy tadqiqotlar olib borishning imkoniyati chegaralangan edi.

Shunga qaramay, sovet yillarida matbuot, ayniqsa milliy matbuot sahifalarini o'rganish, undagi materiallarni imkon darajasida tadqiqotlarga jalb etish holatlarini kuzatish mumkin.

Mavzu tarixshunosligini shartli ravishda ikki davrga ajratish maqsadga muvofiqdir: 1) Sovet davri (20-yillardan 1991 yilgacha); 2) Mustaqillik davri (1991 yildan hozirgi kungacha).

Tarixiy voqealarga baho berishda yagona mezon sifatida markscha-leninchta ta'limotning qabul qilinishi, oxir-oqibatda tarixiy voqelikning soxtalashtirilishiga olib keldi. Biroq, ta'kidlash lozimki, birinchi guruhga kiruvchi adabiyotlar ro`yxati juda keng. O'zbekiston matbuotini o'rganish bo'yicha sovet tuzumi davrida bir qancha adabiyotlar yaratildi. Yuqorida qayd etganimizdek, asarlarning aksariyat katta qismini hukmron kommunistik mafkura manfaatlari asosida yozilgan edi. Shu bilan birga qayd etish kerakki, mazkur tadqiqotlarning aksariyat qismi jurnalistlar, faylasuflar va adabiyotchi olimlar tomonidan o'rganilgan (Ziyo Said. Tanlangan asarlar.-T.: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1974.-B.6., Abduazizova N.A. Pechat' i stroitel'stva sotsializma (na primere jurnal'noy periodike Uzbekistana .-T.: O'zbekiston, 1977.-127s.).

O'zbekiston milliy matbuotini tahlil qilgan dastlabki mualliflardan biri Ziyo Said hisoblanadi. U 1927 yili "O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga oid materiallar" nomli kitobini chop ettirdi. Mazkur kitobda o'zbek milliy matbuotining tashkil topishidan tortib shakllanish - rivojlanish yo'lining qariyb yarim asrlik davri, ilmiy ravishda tadqiq qilishga ilk bor harakat qilingan.

20-yillar adabiyoti shunisi bilan xarakterlik, yaratilgan tarixiy-ilmiy adabiyotlar, maqolalar mualliflari o'zлari tasvir etgan, fikr yuritgan ijtimoiy-siyosiy voqeа va hodisalarning bevosita ishtirokchilar bo'lishgan.

Ijtimoiy-siyosiy harakatlarning yirik namoyandalari bu davrda ham o'z maqola va risolalarida milliy ziyorilarning milliy madaniyatni rivojlantirishga oid faoliyatlariga o'zlarining ijobiy munosabatlarini bildirganlar (Abdurashidxonov M.Q. Xotiralarim.-T.: Sharq, 2001.-B-63.; Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar.-Moskva: 1926.-B.256.).

Sovet yillarda amalga oshirilayotgan islohotlardagi shoshma-shosharliklar, milliy ruhiyatni hisobga olmay amalga tadbiq etilgan ishlar va ularning ayrim xususiyatlari ko`rsatib o`tilgan maqollar sirasiga V. Kasparova, F. Nyurina, A. Nuxrat, S. Dimanshteyn, Z. Preshepcik, M. Amosov kabi olimlarning asarlarini ham alohida ta`kidlab o`tish lozim (Kasparova V. Raskreponenie jenshini Vostoka.-M., 1925., Nyurina F. V Sredney Azii //Koministika.-1925., Preshepcik Z. Opit raboti Kuklubov v Sredney Azii //Kommunistka – 1928., Nuxrat A. Stepnoe skaz. –M., - L., B. I. 1928; Dimonshteyn S. Narodnoe obrazovanie natsional'nostey SSSR i zadachi vostokovedeniya //Noviy Vostok, -1929., Amosov M. Shire organizuyte massi //Kommunistka, -1929. va boshqalar.).

Zero bu asarlarning ba`zi o`rinlarida mazkur davrda sovet hukumatini milliy madaniyatga bo`lgan salbiy munosabati ko`rsatilgan.

XX asrning 50-yillaridan matbuotni ilmiy jihatdan o`rganish boshlandi. Xususan, bu davrda Turkiston matbuoti masalalari bo`yicha T. ernazarov bir qator ilmiy ishlarni amalga oshirdi. Biroq, ishda «Sovet matbuotini» «burjuva» matbuoti bilan taqqoslash, sovet matbuotining «ustuvor» ekanligini isbotlashga harakat qilindi (Ernazarov T. Turkistonda vaqtli matbuot. – T.; O`zDAVNashR, 1959.).

N. Abduazizovaning matbuot tarixiga bag`ishlangan asarida milliy ziyolilardan H. H. Niyoziyning jurnalistik faoliyatiga ham qisman baho berilgan (Abduazizova N.A. Pechat' i stroitel'stva sotsializma (na primere jurnal'noy periodike Uzbekistana.-T.: O`zbekiston, 1977.-S.36.). Ushbu asarda ham partiyaviylik, sinfiylik asoslari yaqqol ko`zga tashlansada, Turkiston ziyolilarining gazeta-jurnallari xususida qimmatli faktik materiallarga boyligi bilan ahamiyatlidir.

Shuni alohida ta`kidlash joizki, mavzu tarixshunosligining ikkinchi davridagina, ya`ni O`zbekiston mustaqillikka erishgandan so`ng XX asrning 20-30 yillari O`zbekiston matbuotiga munosabat masalalariga ob`ektiv-xolisona baho berish imkoniyati paydo bo`ldi. Bu o'rinda O`zbekiston tarixchi va adabiyotchi olimlarining xizmatlari beqiyosdir.

20-30 yillar madaniy meros masalalari mohiyatini ochib berishda adabiyotchi olimlardan O. Sharafuddinov, N. Karimov, B. Qosimovlarning jadid adabiyoti va matbuoti tarixiga bag`ishlangan maqolalar va asarlari diqqatga sazovordir (Sharafiddinov O. Cho'lponni anglash.-T.: Yozuvchi. 1994; Karimov N. Istiqlolni uyg`otgan shoir.-T.:

Ma`naviyat: 2000; Qosimov B. Milliy uyg`onish.-T.: Ma`naviyat, 2002; va boshqalar).

So`nggi paytlarda milliy ziyolilar asarlarini qaytadan nashr etilishi va ilmiy jamoatchilikka taqdim etilishini ma`lum yutuq sifatida qabul qilish mumkin.

Mustaqillik yillarda ayniqsa milliy matbuot materiallarini tadqiqotlarga keng jalb qilish kuchaydi. Xususan, milliy matbuotni taxlil qilingan ilmiy adabiyotlar, tadqiqotlar va maqolalar yozildi.

Masalan, S.Shodmonovaning monografiyasida 1870-1917 yil fevraligacha bo`lgan davrda Turkistonda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar o`zbek hamda rus tilidagi davriy matbuot materiallari asosida tarixshunoslik nuqtai nazaridan taxlil etilgan.

A.Mingnorov ilmiy tadqiqoti shu davr milliy matbuoti materiallari asosida 1917-1918 yil Turkiston milliy ozodlik harakati masalalarini imkon darajasida yoritib beradi.

N.Mustafaeva dissertasiyasida madaniyat masalalarini ayrim jihatlarini yoritishda 20-30 yillar matbuot sahifalaridan keng foydalansada, madaniy meros masalalariga qisman to`xtalib o`tgani.

Garchi, 20-30 yillarda O`zbekiston madaniyati tarixiga bag`ishlangan F.U.Tilovatov, M.B.Yuldasheva, M.K.To`raeva I.E.Shoymardonov, T.Rahmonovlarning tadqiqotlarida shu davr matbuot materiallari keng o`rganilsada, ularda madaniy meros masalalarining o`rganilishi etarli taxlil etilmagan.

Shundan kelib chiqib, “XX asrning 20 - 30 yillari O`zbekiston milliy matbuotida madaniy merosga munosabat masalalari” mavzusini ochib berish muhim vazifalardan hisoblanadi.

YOSHLAR TARBIYASIGA OID QOIDALARINI TAKOMILLASHTIRISH – DAVR TALABI

Jalolov Sirojiddin

*Huquqshunoslik fakulteti
Milliy g`oya: ma`naviyat asoslari
huquq ta`lim yo`nalishi
3-bosqich talabasi.*

O`zbekiston kelajagi buyuk davlat. Zero, buning uchun mustahkam asos – millionlab yetuk va barkamol, intellektual salohiyatga ega hamda jismoniy sog`lom yoshlar shu muqaddas zaminda o`sib ulg`aymoqda.

Mustaqillik yillarda O`zbekiston qonunchiligi barkamol avlod manfaatlarini himoya qilishda quyidagi yo`nalishlarda rivojlandi:

- o`z davlatchiligi asoslarini yaratish jarayonida mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda xususiy tajriba va amaliyotdan, milliy-tarixiy qadriyatlar tizimidan foydalanish;
- sobiq ittifoq va MDH tajribasidan uning ilg`or tamoyillarini buzmay saqlab qolish;
- butun jahon tajribasida, xususan BMT tomonidan ishlab chiqilgan inson huquqlarini ta`minlash borasidagi mavjud eng ilg`or g`oya va normalardan unumli foydalanish.

O`zbekiston yoshlarining ijodiy, intellektual, ijtimoiy, siyosiy zahiralari va salohiyati juda katta kuchga va boylikka ega. Bugungi kundagi bosh vazifa esa - mazkur zahiralarni taraqqiyot, rivojlanish va demokratiya uchun safarbar etishdan iboratdir. (“Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida ish olib borishning samarali usul va uslublaridan foydalanish” semenar-trening materiallari. – Andijon, 2009.- 4-5 may)

Barkamol avlodni tarbiyalash va ularga mentalitetimizga xos axloqiy, huquqiy bilim berishda mahalla fuqarolar yig`inlarini hududdagi bilim maskanlari bilan hamkorligini mustahkamlash davlatimiz milliy ravnaqiga yanada kuch bag`ishlagan bo`lar edi. Bu borada xulosalarga tayangan holda birinchi taklif etishimiz lozim bo`lgan holat bolalarni qarovsiz qolishini oldini olish.

Bolalarning qarovsiz va nazoratsiz qolishining oldini olish maqsadida, avvalo, ota-onalarni va jamoatchilikning mas`uliyatini

oshirish, buning uchun barcha fuqarolar yig`inlari raislari (oqsoqollari), ularning maslahatchilari, mahalla posbonlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, manfaatdor korxona, tashkilot va muassasalar ishtirokida, “Bola huquqlari ularning kelajagi”, “Bola savdosi bo`yicha dunyoda yuz berayotgan hodisalar, ularning huquqiy oqibatlari va uning oldini olish bo`yicha ko`rilayotgan chora-tadbirlar” mavzusida hududiy seminarlar tashkil etish. Ushbu yo`nalishni tartibga soluvchi milliy qonunchilik tizimi yuzasidan tushuntirish ishlarini izchil olib borish maqsadga muvofiq faoliyatdir.

Qonunchiligidan bola huquqlarini himoya qilish borasida bir qancha milliy qadriyatlarimizni va xalqaro talablarni o`zida mujassamlagan. Jinoyat kodeksida ham voyaga etmaganlarni jinoyatlari bo`yicha alohida insonparvarlik tamoyillari belgilab qabul qilingan. Yoshlar o`rtasidagi huquqbazarliklar va jinoyatlar mamlakatimizda voyaga etmaganlar va katta yoshdagilar ishini aynan bir sud tomonidan ko`rildi. Chet davlatlarda esa voyaga etmaganlar ishini Yuvenal sudsulari tomonidan ko`riliishi e`tiborimizni tortadi. Yuvenal sudsulari faqatgina voyaga etmaganlar ishini ko`rish uchun shakllantirilgan.

Yuvenal yustitsiyani shakllantirish bo`yicha BMT taraqqiyot dasturi tomonidan mamlakatimizdagi huquqshunoslik yo`nalishidagi o`quv yurtlari mavjud oliy o`quv yurtlari Toshkent davlat yuridik instituti tashkilotchiligidan seminarlar o`tkazildi.

Taklif etishimiz davr talabi hisoblangan navbatdagi masala voyaga etmaganlar sudsularini shakllantirish. Mamalakatimizda voyaga etmaganlarni alohida sudsular tomonidan bola huquqlari bo`yicha mutaxassislikka ega sudyalar tomonidan ko`riliishi insonparvarlikning tamoyili aks etishi va sud hokimiyati islohotlarining yana bir pog`ona yuqori bo`lishi hisoblanadi.

Qonunchiligidan ko`rinib turibdiki, bolalarni yetarlicha tarbiyalash har bir oilaning, jamiyatning oldidagi burch hisoblanadi.

Hozirgi taraqqiy etgan davrda farzandlarini g`arbga xos tarzda ham tarbiyalanmoqda. Konstitutsiyaviy huquq to`g`risida ta`lim beruvchi mutafakkirlar bu haqda o`z fikrlariga egalar. Ular, «G`arbga xos madaniyatga ixlosmand oilalar an`anaviy oilaviy munosabatlardagi eng yaxshi ma`naviy qadriyatlarni, avvalo o`z a`zolarining fuqaroviylar nuqtai nazari, jamoadagina emas, balki jamiyatdagi ishlarning ahvoli uchun ham javobgarlikni unutmasliklari g`oyat muhimdir»-, deb ta`kidlaydilar.

(Saidov A. «Konstitutsiya va oila». Konstitutsiyaviy huquq.- «Moliya», 2002.-611-b.)

Shundan kelib chiqib, yoshlarni kiyinish madaniyatini shakllantirishda, ko`cha – ko`yda o`zini tutishi, madaniyatini shakllantirishda oliy o`quv yurtlarida axloq kodekslari yaratish, unda aynan yoshlarni madaniyatli va mentalitetimizdan kelib chiqib tarbiya olishlarida axloq Kodekslariga rioya etilishini nazorat qilish lozim deb bilamiz.

Davlatimiz Prezidenti, - «Men Abdulla Avloniying «Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir» degan fikrini ko`p mushohada qilaman. Buyuk ma`rifatparvarning bu so`zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo`lgan bo`lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko`ra muhim va dolzarbdir.

Chunki ta`lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta`lim-tarbiya tizimini o`zgartirmasdan turib ongni o`zgartirib bo`lmaydi. Ongni, tafakkurni o`zgartirmasdan turib esa biz ko`zlagan oliy maqsad - ozod va obod jamiyatni barpo etib bo`lmaydi», - deb ta`kidlaydilar.

Ularni baxtli bolaligi uchun davlatimizda barcha narsa muhayyo. Biz istar edikki, bolalar kelajakda o`z vatanlari, davlatlari uchun kuchli himoyachilar bo`lib yetishsinlar.

«Bolalarimiz bizdan kuchli, bilimli va albatta baxtli bo`lishlari shart»- deb aytgan edilar yo`lboshchimiz I. A. Karimov. Biz yoshlar yurtboshimizni bu chaqiriqlariga va bugungi yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlarga munosib bo`lishimiz shunga yarasha javob qaytarishimiz lozim va shart deb o`layman.

VATANPARVARLIK, INSONPARVARLIK -

MA`NAVIYAT MEZONI

*Mizarov Muzaffar,
Huquqshunoslik fakulteti
Milliy g`oya: ma`naviyat asoslari
huquq ta`lim yo`nalishi
3-kurs 303-guruh talabasi.*

Shuni ta`kidlashimiz lozimki, vatan inson uchun eng qadrli va serqirra tushuncha bo`lib xizmat qilish joizligini har bir kishi qalban his etmog`i kerak. Albatta ushbu so`zni eshitishimiz bilanoq har birimizni ko`z oldimizga tug`ilib o`sigan tuprog`imiz, ona zaminimizning biz uchun qadrli bo`lgan jabhasi - yurtimiz ko`z oldimizda namoyon bo`ladi. Tug`ilib o`sigan joyimiz uning har bir srahadi biz uchun qadrlidir. Chunonchi vatanni sevish uni himoyasiga doimo tayyor turish uchun har bir kishi o`zida vatansparvarlik, insonparvarlik kabi tuyg`ularni namoyon qila olishi o`zini o`tmishi, (tarixini) teran anglashida yuksak ma`naviyat egasi bo`lishi deb qaraladi. Vatansparvarlik deganda - Vatanga nisbatan sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, vatan ravnaqi uchun faol bo`ladigan unga undaydigan ijtimoiy, ma`naviy-axloqiy fazilat tushuniladi. uning mazmunini Vatanga sadoqatli va mehr-muhabbatli bo`lishdir. Yurtni o`tmishi va hozirgi kuni uchun, mamlakat rivoji uchun intilishdan iboratdir. Vatansparvarlik ota-bobolarimizdan meros qolgan zaminni sevish, xalq urf-odatlarini, qadriyatlarini asrash va rivojlantirish, Vatanni nopol niyatli kimsalar, yot begona g`oyalardan himoya qilish, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamaslik nazarda tutiladi.

Insonparvarlik ham xuddi shu ma`noda yaqinroq talqin qilinadi. Odamzod qadri, erkinlik va qobiliyatlarining har tomonlama namoyon bo`lishi uchun kurashish, kishilarni baxt saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotga ta`min etishdagagi intilishini ifodalaydigan g`oya va qarashlar tizimiga aytildi. (Milliy g`oya: targ`ibot texnologiyalari va atamalar lug`ati. –T.: Akademiya, 2007. 108-155 bet.)

Albatta bulsiz kishi o`zini qandaydir bir kerakli narsasini yo`qotib qo`ygandek o`zini his etadi. Bu tuyg`ular bo`lsa undan kuchliroq va undan baxtliroq kishi bo`lmaydi. Inson ushbu tuyg`ularni o`zida jamlashi va o`z-o`zicha o`zini hayotini boshqarmoqchi bo`lsa, u

ma`naviyatli, yuksak hissiy tuyg`u egasi bo`lmog`i shart hisoblanadi. Yuksak ma`naviyat egasigina o`zida ushbu mezonlarni jamlashi o`tmishi va turmush chorrahalarini bosib o`tishda doimiy ravishda o`zini ko`rsata bilishi uchunbarcha imkoniyatlardan keng foydalangan holda harakat qilmog`i shartligini ko`rsatdi. Vatanparvarlik, insonparvarlikni ma`naviyat mezoni deyishimizga sabab, bular uzoq tariximizda ham o`zining o`rniga egadir. Forobiy, Beruniy, Buxoriy, Ibn Sino, Yassaviy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Ulug`bek, Navoiy, bobur, keyinchalik esa sho`rolar ya`ni sovet hukumatining qattiqqo`llik bilan olib borgan siyosatiga qarshi chiqqan ozodlik va mustaqillik uchun kurashgan: Behbudiy, Avloniy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho`lpon, Qodiriy kabi qator ajdodlarimizning inson erkinligi, uning burch va ma`suliyati kabi masalalrni o`zining falsafiy va badiiy echimini topishi uni ro`yobga chiqarilishini istab doimiy ravishda harakat olib borishganliklarini ularning ko`rsatgan jasoratlari, qilgan bunyodkorliklarida ko`rshimiz hamda Vatan va inson doimo qadrlanishini o`zlarini hatti harakatlari ko`rsatgan jasoratlariyu, ma`naviy meroslarida ko`rshimiz mumkin.

Biroq hozirgi globallashuv asrida ko`pincha yoshlarni ma`naviy ozuqa olishiga to`sinqilik qiluvchi ulardagagi bunyodkorlik g`oyalarini o`rniga vayronkorlik g`oyalarini singdiruvchi turli xil ekstremistik, hamda axborot tizimidagi oldi qochdi fikrlar orqali yoshlarni va katta yoshdagagi kishilarni ma`naviyatini buzilishigacha va hatto o`zini ottonasi, vatani va o`zi barpo etgan hamda o`zi yashayotgan muhitni yo`q qilishga aniq boradigan, vayronkorlik g`oyalari ilgari suruvchi kishilar hamda ular faoliyatiga duch kelishimiz mumkinligi namoyon bo`lmoqda va ular o`zlarini qora niyatlarini ba`zi-ba`zida ko`rsatib ham olishmoqda.

Prezidentimiz I.A. Karimov o`zlarini ko`plab nutqlari va asarlarida ham bu haqda juda ko`p to`xtalib o`tishlarini guvohi bo`lib kelamiz. Ularni ushbu keltirgan keltirgan gaplarida ham inson qadr-qimati va vatanparvarligi haqida qayg`urishlari ko`p bor ta`kidlab o`tganliklarini ko`ramiz.

"Bugungi kunda insoniyat qo`lida mavjud qurol-yaroqlar, er kurrasini bir necha bor yakson qilishga etadi. buni hammamiz yaxshi anglaymiz. lekin hozirgi zamondagi eng katta xavf - insonlarning qalbi va ongini egallah uchun uzlusiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. endilikda yadro maydonlarida bo`layotgan kurashlar ko`p narsani hal qiladi. Bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmaslik lozim"

(Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi xalq etiqodi va buyuk kelajagi ishonchidir. –T.: O'zbekiston, 2000. 7-bet.).

Yuqorida yurtboshimiz tomonidan keltirilgan jumlalar orqali shuni aytishimiz mumkinki har bir kishi jamiyatni rivojida o'zini ma'naviyatlari qilib ko'rsatishi, o'zining fikri bilan ish ko'rishi vatanparvar, boshqalarni turush hayoti va olib borayotgan ishlariga to'g'ri qarashi, va to'g'ri yondoshishi orqali o'zini vatan oldida, ota-onasi oldida, insoniylik jihatlarini namoyon qila olishi lozimligini ko'rsata bilishi lozim deb qaralishini yuqorida yurtboshimiz tomonidan aytilan gaplarida o'zini ifodasini topganligini shohidi bo'lamic. va shunday harakatlar ya'ni insonga xos bo'lgan harakat deb bilamiz.

Ma'naviyatli bo'lish uchun avvalo, inson yoshligidanoq ma'nan, aqlan, hamda jismonan kamol topishi va albatta o'zi uchun qulay bo'lgan ijtimoiy jamiyatda yashamog'i lozim deb ko'p gapiramiz. albatta buning uchun har bir mustaqil davlat o'zini o'sib kelayotgan yoshlariga e'tiborli bo'lmog'i lozimligini aytib o'tish darkordir. Bunday islohotlarni o'zimizni mustaqil O'zbekistonimiz hamda uning karvon sardori Prezidentimiz I. A. Karimovning olib borayotgan islohotlarda ko'rishimiz mumkin. Istiqlolning muqaddas ne'mat ekanligi hamda uning qadrli bo'lishini ta'minlashda biz kattalar oldimizga katta maqsadlar qo'yishimiz darkor deb yurtboshimiz ko'p gapirib o'tadilar. Hozirda yoshlarni vatanparvar va insonparvarlik ruhida tayyorlash ularni ma'naviy boyliklarini kengaytirish borasida olib boriladigan ko'plab ishlar sarhisobi har yil birinchi navbatdagi bosh masala sifatida ko'rib chiqiladi.

Yoshlarni vatanparvarligining an'anaviy jihatlaridan biri mamlakat mudofaasidir. uni mustahkamlash uchun nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida Prezidentimiz to'xtalib o'tar ekanlar ushbu jumlanı bejizga keltirmaganliklarini aytish mumkin. ya'ni, yurtimizni barcha aholisi O'zbekistonni yagona Vatan, aziz yurtimiz deb bilishi, o'z taqdirini Vatan taqdiri bilan uzviy bog'lab kurashmog'i, mehnat qilmog'i darkor (Umarov. e. Ma'naviyat asoslari – T. : sharq, 2005. 75-bet.).

Vatan himoyasi u uchun jon kuydirish albatta eng yaxshi ish hamda o'smir yoshidagi balog'atga etayotgan kishi uchun eng muqaddas burch ekanligini Prezidentimizni ko'rsatayotgan ushbu e'tiborlardan ham ko'rib bilishimiz mumkin. Faqat harbiy soha bilan cheklanib qolmay yoshlarni Vatan hamda chin insoniy qilib tarbiyalashda ularni bilim salohiyati va bu orqali ertangi kun kelajakdagi yurtning ya'ni,

O`zbekistonning yangi qiyofasini go`zallashtirishda ularga ma`naviy ozuqa berish, har jahbada uni ko`z qorachig`idek asrovchi kishilar qilib tarbiyalash bugungi kunni asosiy vazifasi ekanligi ta`kidlab o`tiladi. Darhaqiqat vatanparvarlik va insonparvarlikni ma`naviyatga bog`lashimizga bosh sabab agar kishi ma`naviyatli bo`lmasa u yuqorida keltirilgan vatan, ota-onan, o`zidan boshqa insonlar ular taqdiriga befarq bo`lib qoladi. Bunday bo`lishini oldini olish maqsadida yurtboshimiz sa`y-harakatlari besamar ketmayotganligini keltirishimiz mumkin. 2010 yil "Barkamol avlod yili" uning davomi sifatida 2011 yilning "Kichik biznes va tadbirkorlik yili" deb nomlanishi ham yoshlarga berilayotgan e`tibor katta ekanligini ko`rsatadi.

Bolaga go`daklik chog`ida beshik tebratayotgan ona o`z allasi bilan ma`naviy ozuqa beradi. Keyinchalik, katta bo`lib ulg`aygan sari u haqda ko`proq ona yurti, ya`ni uning vatani xuddi ona allasi kabi unga ruhiy, jismoniy va albatta yuksaklikka etishtirish uchun barcha sharoitlardan kelib chiqqan holda unga keng e`tibor qaratadi. Buni yaxshi anglagan hamda tushunib etgan bola yoki o`smir o`zini kimligini anglab Vatani ravnaqiga o`zini hissasini qo`shishga harakat qiladi. Bunda unga ajdodlaridan qolgan meros hamda uni qadrlash vazifasi yuklanadi. Buni anglash, uni ko`z qorachig`idek saqlash esa o`z navbatida kishidan yuksak matonat u uchun beriladigan oliv ne`mat - ma`naviyatni talab etadi.

BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA TA`LIM VA TARBIYANING O'RNI

*Xo`jaxonov Islomxo`ja,
huquqshunoslik fakulteti
Milliy g`oya: ma`naviyat asoslari
huquq ta`lim yo`nalishi
3-kurs, 303-guruh talabasi*

BARKAMOL AVLOD - O`ZBEKISTON TARAQQIYOTINING POYDEVORI

I. A. Karimov

O`zbek xalqining milliy menteletetiga xos xususiyatlaridan biri sog`lom barkamol farzandlarni voega etkazishdur. Har bir inson o`z farzandi baxti saodati uchun umri mobaynida o`zini ayamay mehnat qiladi. Farzand dunyoga kelibdiki, oila davrasida urf-odat an`ana qadryatlar asosida tarbiya olib voyaga etadi. Ota-onaning muhim vazifalaridan biri bu farzandni voega etgach yaxshi muallim qo`liga topshirish savodini chiqarish, ilmiy kasb-hunarli qilishdan iborat.

Barkamol avlodni tarbiyalashda ta`lim va tarbiyaning o`rni haqida gap borar ekan men ta`lim va tarbiya haqida qisqacha izoh berib o`tmochiman. Ta`lim - bu maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o`tkaziladigan o`quvchilarni bilim ko`nikma va malakalari bilan qurollantiradigan bilim qobiliyatlarni o`stiradigan ularni dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir. Tarbiya - bu o`sib kelayotgan avlodlarda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot va dunyo qarashni insoniy etiqod burch va ma`suliyatni jamiyatimiz kishilariga xos bo`lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya bola tug'ilganidan boshlab umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Tarbiya oilada, mакtabda va jamoatchilik ta`sirida shakllansa, ta`lim esa chegaralangan joyda tashkil etiladi. Ya`ni, o`qituvchi tarbiyachi rahbarligida muayyan belgilangan vaqtida olib boriladi.

Mamlakatimiz mustaqilikka erishgan dastlabki kunlaridanoq o`z oldiga birinchilardan bo`lib ma`naviyatimizni tiklash va yuksaltirish, milliy tarbiya tizimini takomillashtirishga katta e'tibor berildi. Bularga quydagilarni misol qilib aytib o`tishimiz mumkin.

- O'zbekistonda ta'lim-tarbiya, kadrlar taylorlash tizimini tubdan isloh qilish va barkamol avlodni voyaga etkazish maqsadida 1992-yildagi va qayta ishlangan 1997-yil 29-avgustdagি O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida "Ta'lim to'g'risida"gi qonunni ko'rishimiz mumkin.

Bu qonunlarda O'zbekiston fuqorolarining ta'lim sohasidagi huquqlari belgilab qo'yilgan. Ularga ko'ra: "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiylar ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir". 1996 yildan boshlab lotin imlosiga asoslangan yangi o'zbek alifbosi joriy etildi va shu yildan boshlab yangi yozuv asosida dasturlar qo'llanmalar va darsliklar yaratilishiga kirishildi, o'qituvchilar lotin imlosiga asoslangan yangi o'zbek alifbosini o'rganib, qayta taylorlash kurslaridan o'tkazildi. Bundan tashqari bilim olish huquqi "Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqeい, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'iy nazar har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi" (O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonunning 4-moddasi.) deb takidlab o'tilgan.

Bunday qonunlardan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, mustaqil O'zbekistonda barkamol avlodni tarbiyalash uchun etarlicha shart sharoit yaratib berilgani ko'rinish turibdi. Faqatgina biz yoshlar kelajagimizning, taraqqiyotimizning poydevori ekanligimizni xis qilmog'imiz va bizning oldimizga qo'yilayotgan ma'suliyatni qay darajada ekanligini xis qilmog'imiz lozim. Yurtboshimiz I. A. Karimov tomonidan biz yoshlarga e'tiborlarining yana bir isboti 2010-yilni "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilinishidir. Bu nomni berishning bir qancha sabablari bor albatta "Tabiiyki, barcha ezgu niyatlarining markazida yoshlar jismoniy ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish baxti saodati farovon kelajagimiz uchun, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodini tarbiyalash bizning bosh maqsadimiz" (O'zbekiston Respublikasining Kontitututsiyasining 41-moddasi.) deb ta'kidladi yurtboshimiz I. A. Karimov.

Umumlashtirib shuni aytishimiz lozimki, o'zbek xalqi tabiatan bolajon xalq. Bolaga nisbatan bag'rikenglik mehridaryolik o'ta fidoiylik xalqimizga xos xususiyatdir. Shu boisdan ota-onalarimiz farzandlarining

puxta bilim olishlari qiziqishlari bo'yicha kasb-hunar egallashlari axloq odob qoidalarini mukammal bilishlari va ularga amal qilishlari uchun zarur imkoniyatlarni yaratadilar. Chunki, oilada bolaning to'g'ri tarbiyalash mustahkam poydevorli jamiyat yaratishning garovi. Oila ahilligi barkamol farzandlar jamiyat mustahkamligi va ma'naviy etukligini garovidur. Sohibqiron Amir Temur bobomiz ham o'g'il qizlari tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko'targanlar. Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki inson umri davomida oladigan barcha ma'lumotni 70 % ni 5 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak aynan shu davrda unga ta'lim va tarbiya berish muhim vazifalaridan biri ekanligini ko'rish mumkin. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, yurtimizni ertangi kuni qanday bo'lishi biz yoshlarni bugun qanday ta'lim va tarbiya olishimizga bog'liq. "Ta'limni tarbiyadan tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Bu sharqona qarash sharqona hayot falsafasi" (I. A. Karimov. "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" T. : "Ma'naviyat". 2008.) deb ta'kidlagan edi yurtboshimiz I. A. Karimov.

Ta'lim va tarbiya yaqindagina paydo bo'lgan emas. U bizga buyuk ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan desak xato qilmagan bo'lamiz. Bu haqda fikr yuritganda men buyuk bobokalonimiz Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" degan so'zlarini yodga olaman. Bobokalonimizning bu so'zları hozirgi davrda ham o'ta muhim va dolzarb masala hisoblangan.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda yangidan yangi pedagogik texnologiyalar bilan o'quv materiallari o'quv ko'rgazmali qurollari bilan jahon mamlakatlari andozasiga mos va bellasha oladigan ta'lim tizimini tashkil etishlik barkamol avlodni tarbiyalashda eng muhim dolzarb vazifalardan biridir.

PAXTANI VATANI QAER?

*Rislig'oy Ibragimova,
tarix fakul'teti
4 kurs talabasi.*

Paxtani yoshi ming yillarni qamrab oladi. Bugungi kunimiz bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, kundalik hayotimizni asosini tashkil qilgan paxtaning tarixi haqida ko'p narsalarni zamon pardasi bizdan yashirgan. Bugun aynan biz insoniyat bilan birga shonli tarix yo'lini bosib o'tgan paxta tarixini yoritishga harakat qilamiz.

Paxtaning vatani issiq tropik mamlakatlardir. Madaniylashgan sari u shimolga – subtropik mintaqalar tomon siljib bordi. Paxta tarixini yoritishni ilk paydo bo'lgan davrdan boshlash maqsadga muvofiq deb topdik.

Er yuzida sudralib yuruvchi hayvonlar yashagan vaqtida, bir o'simlik paydo bo'lib, aynan shu o'simlikka tabiat uzoq umr ato etdi. Paxta nomi bilan hozirgi kunimizgacha poyqadam bo'lib kelgan bu o'simlik insoniyat xayotining ajralmas bir bo'lgani bo'lib qoldi.

Aytib o'tganimizdek er yuzining tropik mintaqalarida o'sgan paxta gulli o'simliklardan hisoblangan. Ozroq vaqtidan so'ng er yuzida iqlim o'zgardi, yog'in-sochinlar kamayib yilning issiq fasli, sovuq fasli bilan almasha boshladi. Tabiatning bu injiqqlikleri er yuzining o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'sir qilmay qolmadi. Buning natijasida hayvonlar va o'simliklarning ko'plari nobud bo'ldi. Faqat paxtagina tabiat bilan kelishish yo'lini tutdi va bu iqlimga moslashib butun sayyoramizni egallay boshladi. Lekin aynan uning birinchi paydo bo'lgan nuqtasini aytish qiyin. Olimlar Afrikada o'sadigan o'tsimon Xerbateut turini eski dunyodagi madaniy paxtaning eng qadimiy ajodi deb hisoblaydilar. (Gaziyants S. Arkadiy M. Asrlar va mamlakatlar osha. – T.; Cho'lpon, 1991. – B. 6.)

Erning yorilishi va qit'alarga bo'linishi natijasida paxta Gandvanadan uzoqlashib issiq iqlimli Hindistonga kelib qoladi. Bunday o'zgarishlar natijasida paxta o'tsimon o'simlikdan daraxtsimon o'simlikka aylandi. Hind dehqonlari qisqa vaqt ichida bu o'simlikni o'z manfaatlariga xizmat qildirishga erishdilar.

Paxta madaniylashib uning yangi bir yillik shakllari paydo bo`ldi. O'n metrli daraxt subtropik joylarga moslashib kichkina daraxtsimon o'simlikka aylandi.

Madaniylashgan g`o`za bir paytning o`zida to`rt mintaqada o'sa boshlaydi. Uning ikkita vatani Markaziy va Janubiy Amerika bo`lsa, yana ikkitasi Hindiston, Afrika – Osiyo hisoblanadi. Shunday qilib insonlar paxtani madaniy o'simlikga aylantirdilar. Unda o'zları uchun zarur bo`lgan kiyim – kechak, oziq-ovqat, xo`jalik sohalarida foydalana boshladilar. Qadimdagи insonlar uchun paxta chigitи to`yimli ozuqa vazifasini bajargan. Shu o`rinda eng qadimgi gazlama Hindistonning shimoli-g`arbдagi Moxenjo-Doro shahri qazilmalaridan topilgan. Paxtadan mato tayyorlash juda mashaqqatli mehnat talab qilgan. Shuning uchun ham u noyob va bebaho buyum hisoblangan. Buni shundan ham bilishimiz mumkinki, hindlarning eng oliv tabaqasi bo`lgan braxmanlargina paxtadan tayyorlangan kiyimni kiyishlari mumkin edi xolos.

Tarix otasi Geradot (mil. avval. V-IV asr) va Teofrant Hind paxtazorlarini shunday tasvirlaydi. Hindlar kiyim tayyorladigan daraxtning xuddi tutnikiga o`xshash barglari bor, lekin daraxtning o`zi yovvoyi atirgulga o`xshaydi. Ularni tep-tekis maydonlarga shudgor olib ekishadi, uni to`g`risidan qaralsa uzumzorga o`xshaydi.

Matoning eng qadimi yoshi 9 ming yil atrofida hisoblanadi. Mato tayyorlash bilan eramizdan avval Hindiston, Misr, Peru, Xitoya tayyorlashgan. Evropaga paxta chigitini birinchi bo`lib Makedoniyalik Iskandar keltirgan. U erda mato tayyorlash eraning boshlariga to`g`ri keladi. Qadimgi greklar, rimliklar ip gazlama matolarini Hindistondan xarid qilganlar. Shunisi ham qiziqliki, Iskandar Hind gazlamalaridan elkan, parda va choyshab tayyorlashda foydalangan. Hindistonga qo`shti bo`lgan Xitoya esa paxta manzarali o'simlik sifatida o`stirilgan. Xitoy imperatori o`zining bog`ida g`o`za o`stirgan va u gullar ichida eng jilvakori hisoblangan.

Xususan paxtadan tayyorlangan gazlamalar Rim ayollariga ham yoqqan. Xatto Rim imperatori Neron tushlikda solinadigan 1 dona dasturxon uchun 4 mln. sestertsiy (senatning 4 azosini mol mulkiga teng) to`lagan. (Gaziyants S., Arkadiy M., Asrlar va mamlakatlar osha. – T.: Cho`lpon, 1991. – B. 16.)

Jumladan, O`rta Osiyo hududida ham paxta qadimdan mavjud bo`lganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Hozirgi davrda ham paxta bu eng qimmatli moddiy boylik hisoblanadi.

Mustaqil O'zbekistonimiz ham jahonning eng yirik paxta etishtiruvchi mamlakatlari qatorida turadi.

Paxtani bejizga "oq oltinga" qiyoslamaymiz. Zero u bizning azaliy va milliy boyligimizdir.

SHARQONA BAG'RIKENGLIKKA HAMOHANG

Nodirbek Otaxonov,

Namangan Davlat

Universiteti 2- kypc,

Yurisprudensiya

yo'nalishi talabasi.

O'zbekiston Respublikasi sud-huquq tizimidagi islohatlar jahon jamoatchiligining hayrat va e'tiroflariga sazovor bo'lgani hech kimga sir emas.

Ayniqsa, aministiya ko'laming naqadar kengligi, mohiyati chuqurligi, sharqona kechirimlilik va adolatparvarlik tamoyillariga hamohangligini aytmaysizmi!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov taqdimiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisni tomonidan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligini o'n to'qqiz yilligi munosabati bilan aministiya to'g'risida qaror qabul qilindi. Aministiya to'g'risidagi mazkur qarorning o'z o'rnda va vaqtida bajarilishini ta'minlash, to'g'ri qo'llanilishi hamda asossiz sansalorliklarga yo'l qo'ymaslik maqsadida keng jamoatchilik nazoratiga topshirilishi tahsinga loyiq. Yurtimizda demokratik tamoyilning ustivorligini ayon qilib qo'yyadi.

Aministiya asl mohiyati nimadan iboratligini anglab olish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 68-moddasida jinoyat sodir etgan shaxs aministiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinligi belgilangan.

Aministiya - muayyan jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan jinoyat qonunini bekor qilmasdan, sud hukmining qarorlari asosli va

qonuniyligini shubha ostiga qo'ymasdan, shaxsni jazodan yoki jinoiy javobgarlikdan ozod qiladi, aybdorga tayinlangan jazoni yengilrog'i bilan alshmatiradi yohud belgilangan muddatlarni qisqartiradi, shuningdek, jazoni o'taganlikning oqibati sudlanganlikni bekor qiladi.

Aministiya akti muayyan jinoyat uchun javobgarlikni ko'zda tutgan huquqiy hujjatni, yani sud hukmini bekor qilmaydi, balki jinoyat sodir etgan shaxslarni qismatini yengillashtiradi.

Aministiya akti asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishda insonparvarlik prinsipi o'z ifodasini topgan.

Aministiya - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80-moddasi, 10-bandiga asoslanib O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan qabul qilgan normativ xarakterdagi hujjat bo'lib, unda jinoiy javobgarlikdan yoki tayinlangan jozani o'tashdan ozod etiladigan, sud belgilagan jazo muddati qisqartiriladigan shaxslar toifalari, yoki barcha shaxslar belgilab beriladi. Aministiya akti yuridik kuchi muayyan doiradagi shaxslarga nisbatan yoki muayyan turdag'i jinoyat sodir etganlarga nisbatan chiqarilgan normativ akt hisoblanadi. Shuning uchun ham respublikamizda aministiya akti to'g'risida alohida qonun qabul qilinmagan. Bunga xojat ham yo'q. Chunki, bunday qonunni qabul qilishni hech qanday amaliy ahamiyati yo'q. Har safar aministiya akti chiqganida, shu aktni o'zida aministiya qilinishi lozim bo'lган shaxslar guruhi va aministiya qilish tartibi ko'rsatiladi.

Aministiya aktlari, odatda, voyaga yetmaganlar, ayollar, xomilador ayollarga, keksalar, juda og'ir kasallikka chalinganlarga, shuningdek boshqa belgilar: jinoyat xarakteri va og'irlik darajasiga ko'ra qo'llaniladi. Ammo, boshqa ijtimoiy-siyosiy asoslarga ko'ra ham aministiya aktlari qabul qilingan bo'lib, ularni doirasasi an'anaviy tartibda emas, balki, alohida tartibda belgilanadi. Ana shu nuqtai nazardan aministiya residivistlar va boshqa xavfli jinoyatchilarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Umumiy qoidaga ko'ra, aministiya akti u chiqarilgunga qadar sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan tadbiq etiladi. Uzoqqa cho'zilgan jinoyat sodir etgan shaxlarga nisbatan, aministiya akti, agar jinoyatni tashkil etuvchi barcha harakatlar aministiya akti kuchga kirgunga qadar amalga oshirilgan bo'lsa, tadbiq etiladi. Aministiya akti asosida shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish davlat tomonidan uning jinoyatini emas, balki shaxsni kechirilishidir.

Aministiya aktining yuridik kuchi ushbu me'yoriy akt kuchga kirgan, ya'ni u e'lon qilingan kunga qadar jinoyat sodir etgan shaxslarga tadbiq etiladi. Aministiya aktlari to'rt oy mobaynida amal qilib, bu o'z navbatida ushbu insonparvarlik akti ana shu davr davomida bajarilishi shartligidan dalolat beradi.

O'ZBEKISTON KELAJAGI YOSHLAR QO'LIDA

Sarvarjon Do'smatov,

*milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi
yo'nalishi 4-bosqich talabasi.*

Har qanday millatning ravnaqi, umumbashariyat tarixida tutgan o'rni, mavqeい va shuhrati bevosita o'z farzandlarining aqliy va jismoniy yetukligiga bog'liqdir.

Islom Karimov.

Davlatimiz mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq yoshlar masalasiga jiddiy e'tibor qaratdi. Bu bejiz emas albatta. O'zbekistonning kelajagi, uning istiqboli, birinchi navbatda, yoshlarni tarbiyalash, sog'lom qilib o'stirish, ularning ongini o'tmishtan ozod ravishda shakllantirish mustaqil mamlakatning dolzarb vazifalaridandir.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston aholisining 60 foizdan ortig'ini yoshlar, ya'ni o'ttiz yoshdan oshmaganlar tashkil qiladi. Bu boshqa mamlakatlarning ko'rsatkichlaridan ikki- ikki yarim barobar ko'p. Demak, har yili yarim milliondan oshiq yangi tug'ilgan go'daklar aholi qatoriga qo'shilmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov bu omillarni inobatga olgan holda, yoshlar haqida doimiy g'amxo'rlik qilmoqda. Masalan, mustaqillikning dastlabki kunlaridan oq, ya'ni 1991- yil noyabrda O'zbekiston Respublikasining "Davlat yoshlar siyosatining asoslari to'g'risida" gi Qonuni qabul qilindi. Undan keyin ikki oy o'tar-o'tmas, 1992- yil yanvarda "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi, 1992- yil iyulda "Maorif va o'quv – o'qituv masalalari to'g'risida" gi qonunlar e'lon qilindi. 1996-yil aprelda Prezidentimizning Farmoni bilan "Kamolot"

yoshlar jamg'armasi ta'sis etildi. 1997- yil yanvarida esa, Prezidentimiz Farmoniga asosan "Umid" iste'dodli yoshlarni rag'batlantirish jamg'armasi ta'sis qilindi. So'ngra "Iste'dod" jamg'armasi o'z faoliyatini boshladi.

O'zbekiston mustaqil davlatlar orasida birinchi bo'lib "Sog'lom avlod uchun" ordeni hamda dasturini e'lon qildi. Serfarzand oilalarga turli yordam, ko'mak yo'llarini yaratdi va yaratmoqda.

Shunday ekan, biz yoshlar o'zimizga yaratilayotgan bunday imkoniyatlardan samarali foydalanib, bor kuch g'ayratimizni, salohiyatimizni ishga solib, vatanimizning gullab-yashnashiga, taraqqiyotiga, Mustaqil O'zbekistonimizni zamonamizning eng rivojlangan davlatlaridan biri bo'lishiga o'z hissamizni qo'shmosh'imiz darkor. Zero, O'zbekiston kelajagi yoshlar qo'lida!

JAMOAT TRANSPORTLARIDA YURISH QOIDALARI

Qodiraliyeva Dilafruz,

*Namangan tumani Axborot texnologiyalari va servis kasb-hunar kolleji
2-bosqich, 19-guruh talabasi.*

Biz erta tongda bugun nima qilishimiz, qayerga borishimiz haqida rejalashtirib olamiz. Kimdir o'qishga, kimdir ishga, kimdir esa boshqa yumushlar bilan yo'lga otlanadi. Biz bilamizki, shahar ichi bo'ylab har bir yo'nalishga "Otoyol" rusumli avtotransportlar qo'yilgan. Bu transportlar o'z nomi bilan jamoat transporti. Unda ko'pchilik harakatlanadi. Shunday ekan, jamoat transportlarida ham yurish qoidalari bor. Masalan, odamlar orasida telefonda baqirib gaplashmaslik, o'zidan kattalarga, nogironlarga, bolali ayollarga joy berish, telefonda gaplashganda yon-atrofdagi odamlarni nafsoniyatiga tegadigan nojo'i gaplarni gapirmaslik va h.k.

Ko'p hollarda kuzatib qolamiz: jamoat transportiga chiqsak, yoshi keksa insonlar avtobusga chiqishganda, yoshlar hech narsani bilmagandek beparvo o'tiraverishadi. Ko'rishadi, lekin ko'rmaganlikka olishadi. Qachonki, kimdir kelib qariyalarga joy berishni "iltimos" qilmaguncha. Nahotki, yoshlarimizni vijdonlari shu narsani qabul

qilaversa. Bir keksa odam avtobusda tik turib ketsa-yu, qanday qilib o'rindiqda bemałol o'tirib ketish mumkin. Agar biz qariyalarga qanday munosabatda bo'lsak, bir kun biz ham qariymiz, bizga ham shunday munosabatda bo'lishadi.

Shunday hodisalardan yana bir misol: hozir zamon rivojlangani sari uyali telefonlarga ham ehtiyoj borgan sari ortib bormoqda. Hozir kimni aytaylik, deyarli hammada uyali telefonlar bor. Telefonsiz yurish ancha mushkul bo'lib qoldi. To`g`ri, telefonni qulayliklari, afzalliklari juda ko`p, ammo, telefonda gaplashishning ham o`ziga yarasha qonun-qoidalari bor. Telefonda gaplashyotganda baland ovoz bilan emas, past ovoz bilan qolaversa, muloyimlik bilan gaplashish kerak. Shunday insonlarni kuzatamizki, ular jamoat joylarda, ya`ni odamlar orasida baland ovozda, baqirib telefonda gaplashishadi. U ham yetmagandek, ba`zida, odamni shaxsiyatiga tegadigan gaplarni gapirib telefonda janjallahishadi. Bu esa albatta, yon-atrofdagilarga yoqmaydi. Biz qayerdan bilamiz, avtobusdagi odamlarni kayfiyatları qanaqa, ularga bu holat yoqadimi? Axir, avtobusda faqat unung o`zi ketmayapdi-ku?! Kimdir betob bo'lishi mumkin, kimnidir boshi qattiq og`riyotgan bo'lishi mumkin, kimnidir yaqin insoni olamdan yaqinda o'tgan bo'lishi mumkin. Vaholanki, bunday insonlar manzillariga tinch va tez yetib olishni istaydilar. Qolaversa, avtobusga ko`proq qariyalar chiqishadi. Ularga bunday shovqin-suron, baland ovozdagi telefonda so`zlashuvlar yoqmaydi. Vatanimizning porloq kelajagi biz yoshlarning qo`lida ekan, keling, bu kabi tartibsizliklarga chek qo'yaylik. Biz qanday yo`ldan yursak, bizdan keyingi ulg`ayib kelayotgan ukalarimiz-singillarimiz ham o'sha yo`ldan yurishadi. Biz qanchalik o`zgalarini, yon-atrofdagilarni hurmat qilsak, bizni ham shunday hurmat qilishadi. Axir, hikmatga boy bo`lgan dono xalqimizning bir gapi bor:- "Hurmat qilsang, hurmat topasan" deyishadi. Chindan ham shunday, biz hammani hurmat qilaylik. Zero, bizdan keyin bizni o`rnimizni egallaydigan yoshlar bizdan o`rnak olib, bizni izimizdan borishsin. Hayot - bu biz uchun bir sinovdir. Kechagi kun-o`tmish, ertangi kun - sir, bugunimiz esa - sovg`adir. Shuning uchun bugun bu dunyoda borligimizga, tirikligimizga shukr qilib, hayotimiz davomida ko`proq hayrli ishlar qilishga intilib yashaylik.

SHVETSARIYA GRANTI – YANGIYER QISHLOQ

XO`JALIK KASB-HUNAR KOLLEJIDA

A. Abdulhamidov,

*Uchqo`rg`on tumani Yangiyer
qishloq xo`jalik kasb-hunar
kolleji I bosqich 175 –guruh talabasi.*

Shu kunning dolzarb vazifalaridan biri kasb hunar kolleji o`quvchilariga zamon talablari darajasida kasb-hunar o`rgatish hamda ularni ishga joylashtirishdir.

Respublikamiz Prezidentining beqiyos g`amxo`rliklari tufayli kollejlarda keng ko`lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O`zbekiston Respublikasi va Shvetsariya Konfederatsiyasi hukumatlari o`rtasida 2011 yil 18 iyulda imzolangan bitimga muvofiq Shvetsariya rivojlantirish va hamkorlik Agentligining moliyaviy ko`magida o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi markazi tomonidan “O`zbekistonda suv xo`jaligi sohasida kasbiy ko`nikmalarni rivojlantirish” loyihasini qo`lga kiritishga muvaffaq bo`ldi.

Loyihaning asosiy maqsadi kasb-hunar kolleji bilan suv xo`jaligi korxonasi va ob`ektlari o`rtasida yangi modellarni ishlab chiqish hamda hayotga tadbiq etishdan iboratdir.

“O`zbekistonda suv xo`jaligi sohasida kasbiy ko`nikmalarni rivojlantirish” loyihasi xalqaro rahbari G.D.Xopfner hamda “O`zbekistonda suv xo`jaligi sohasida kasbiy ko`nikmalarni rivojlantirish maqsadida” loyihaning milliy rahbari Sh.M.Mahmudova, viloyat kasb-hunar ta`limi boshqarmasi boshlig`i O.Sarimsoqov, Uchqo`rg`on tumani hokimi B.Nurmatov kollejiga tashrif buyurib kollej hayoti bilan tanishdilar. Shu sohada amalga oshirilgan va kelgusida bajariladigan ishlar yuzasidan kelishib olindi.

Kollejning o`qituvchi va ishlab chiqarish ta`limi ustalari berilgan bunday imkoniyatdan samarali foydalangan holda o`quvchi yoshlarga puxta bilim berish va kasb – hunar o`rgatish borasida fidokorona mehnat qilmoqdalar.

Respublikamizda 1997 yilning 27 avgust kuni qabul qilingan “Ta`lim to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ga binoan ta`lim turlari: maktabgacha ta`lim,

umumiyl o`rta ta`lim, o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi, oliy ta`lim, oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta`lim shaklida belgilandi.

Shunga ko`ra, 3 yillik kollej-litsey ta`limining yo`lga qo`yilishi balog`at yoshiga etib endi mustaqil hayotga kirib kelayotgan biz kabi yigit-qizlarni bugungi kunimiz uchun zarur bo`lgan muayyan kasb-hunarni egallab, kelajakka qarab dadil qadam tashlashimiz uchun real imkoniyat yaratib berdi.

Ushbu yaratilgan imkoniyatlarga hamohang tarzda faoliyat yuritish biz uchun biz yoshlarning asosiy vazifalarimizdandir.

Kollejimizda yaratilgan imkoniyatlar, ustoz-muallimlarning bizga berayotgan ta`lim-tarbiyalariiga munosib tarzda javob qaytarib, malakali mutaxassis bo`lib etishish asosiy maqsadimizdir.

MEN SEVGAN KASB

*Yulduzzon Hamidullaeva,
Namangan tumani Pedagogika
kolleji 2-bosqich talabasi.*

Dunyoda kasblar va hunarlarning turi juda ham ko`p. Albatta hayotimizda ularning har birini alohida o`z o`rni bor. Qaysi kasbni tanlash kishining o`z xohishi va qiziqishiga bog`lik. Men ham yoshligimdan o`qituvchi bo`lishni xohlاب, shunga intilib yashaganman.

Maktabda o`qiyotgan chog`larimda menga dars berayotgan o`qituvchilarimning bilimlari, mahoratlari menda o`qituvchi bo`lish istagini paydo qilgan edi. Shu bilan birga meni bu kasbga qiziqishimda bugungi kunda faxriylik nafaqasini olib, qarilik gashtini surayotgan buvam Ismoiljon Imomberdievning xizmatlari beqiyosdir. Ismoiljon domla butun umrlarini yosh avlod ta`lim-tarbiyasiga bag`ishlab o`tkazdilar. Bugungi kunda buvamning shogirdlari turli xil kasb-hunar egalari bo`lib, xalqimiz xizmatidirlar. Ismoiljon Imomberdiev domla esa, farzandlari, nabiralari va el-yurtning duosidadirlar.

Shu bilan birga bu borada menda qiziqish uyg`otgan insonlardan yana biri, maktab o`qituvchisi, xolam Nilufarxon opa bo`ladilar. Yaqin yigirma yillik kasbiy malakaga ega bo`lgan Nilufarxon opani qishlog`imizdagи barcha yosh-u, qari hurmat bilan tilga olishadi.

Hazrati Navoiy o`z g`azallarining birida shunday degan edilar:

**Haq yo`lida kim sanga bir harf o`rgatmish ranj ila,
Aylamak bo`lmas ado, oning haqqin yuz ganj ila.**

Hazrat Navoiyning mazkur baytlarini doimo yodda tutgan holda, bugun kollejimizda menga saboq berayotgan ustozlarimga ham samimiy minnatdorchilik bildirgim keladi. Kelgusidagi orzuyim, kollejni tamomlagach, Namangan davlat universitetining O`zbek filologiyasi fakultetiga kirib, bilim olishni davom ettirish. O`qituvchilik kasbini egallagach, ustozlarim kabi xalqimizga xizmat qilish, yosh avlod ta`limtarbiyasi yo`lida fidokorona mehnat qilish. Kishilarga bilim berishdek sharaflı kasbni egallah.

MUNDARIJA

Mamatov O.V. Buzg`unchi ohanglar -----	3
Husainov A. Yangi fan-----	6
Bozorov E. Oilaviy hayot va yoshlar tarbiyasi-----	8
Bo`stonov A. Milliy istiqlol va Amir Temur qadriyati-----	11
Abdurahmonova B. Milliy g`oya va mafkurani ta`lim va tarbiya jarayoniga singdirishda yangicha yondashuv-----	14
Qozoqov T.Q., Abdurahmonova B. Jadid maktablari tarixidan--	16
Topildiev O.R. O`zbekiston respublikasida yoshlarning demografik holati-----	19
Tillaev B. O`zbekistonning mustaqillikka erishuvi va o`zbek milliy davlatchiligining tiklanishi-----	24
Qozoqov T.Q. Jadid teatri tarixidan-----	29
Bo`stonov A. Abdurahmonova B. Yoshlarda milliy g`urur va vatanparvarlik tuyg`usini shakllantirish-----	30
Ibrahimov B. Temuriylar davri ma`naviyati -----	33
Mirzahmedov X. Yoshlar ma`naviy madaniyati - jamiyatni yanada demokratiyalashtirishning muhim sharti -----	38
Qambarov A. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilish bosqichlari va rivojlanishi -----	42
Ibrahimov B. Sitseron notiqligi va uning ahamiyati. -----	44
Jo`raev A.T. “Taraqqiy”- to`ng`ich milliy nashrimiz -----	48
Mahmudov M. Milliy matbuotda madaniy merosga munosabat masalalarining ayrim jihatlarining o`rganilishi-----	51
Jalolov S. Yoshlar tarbiyasiga oid qoidalarni takomillashtirish – davr talabi -----	55
Mizarov M. Vatanparvarlik, insonparvarlik - ma`naviyat mezoni -----	58
Xo`jaxonov I. Barkamol avlodni tarbiyalashda ta`lim va tarbiyaning o`rni -----	62
Ibragimova R. Paxtani vatan niqaer? -----	65
Nodirbek Otaxonov. Sharqona bag`rikenglikka hamohang-----	67

Do'smatov Sarvarjon. O'zbekiston kelajagi yoshlar qo'lida-----	69
Qodiraliyeva D. Jamoat transportlarida yurish qoidalari -----	70
Abdulhamidov A. Shvetsariya granti – Yangier qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejida -----	72
Hamidullaeva Yu. Men sevgan kasb -----	73



ISBN-978-9943-371-48-4

9789943371484